

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2023-yil 12-iyul chorshanba № 28(9457)

Xalq ziyolilari gazetasi



O'qituvchiga qo'yiladigan talab bita: bolaga yaxshi bilim berish. Ammo bizda talablar ko'paytirib yuborilgan. Jumladan, yaxshi ijrochi bo'lish, "katta"larga yoqish, qog'ozlarni vaqtida to'ldirib borish, mustaqil fikrga ega bo'lmaslik, haqini talab qilmaslik, g'ing demasdan jim yurish, mukofotlardan ulush berib turish, qanaqa yo'l bilan bo'lmasin sertifikat olish va hokazolar...

Qo'shimcha qilmoqchi bo'lsangiz ro'yxatni davom ettiring.

Xudoyberdi KOMILOV



Yil bo'yi pedagoglar ta'lim va tarbiyani bir chetga qo'yib, tanlovlar-u tadbirlarda qatnashib, faxriy yorliq va tashakkurnoma yig'ishni eng asosiy ish deb bil-yapti.

Shunda ustamayam yoziladi, hurmatingiz ortib, e'tiborga tusha boshlaysiz.

Nargiza BEKNAZAROVA



Sinf rahbarlikda keraksiz jadvallar asabingga tegadi. Kursga boruvchilar haqida, kam ta'minlanganlar haqida, chin yetim, to'liqsiz oila, notinch oila, jinoyatga moyil, ota-onasining pasport ma'lumotlari haqida... Sanab adog'iga yetolmaysiz. Koshki, shu ma'lumotlar o'rganilib, biror-bir amaliy yordam berilsa. Hammasi shunchaki papkani semirtirish uchun xizmat qiladi.

Sarvinoz SUNNATOVA

ALVIDO, SO'NGGI QO'NG'IROQ

YOXUD MAKTAB TA'LIMIDAGI MUAMMOLAR

2-5-betlar





Aks sado

1. TA'LIMDAGI MUAMMOLAR...

Aslida bu maqola ikkita maqola, ya'ni Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori Baxtiyor Mengliyevning "Ma'rifat" gazetasining 2023-yil 24-may sonida chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga MUROJAAT: ta'lim taraqqiyotining tayanch nuqtasi" nomli maqolasi tahlili orqali ta'limdagi muammolarni yorituvchi maqola va so'nggi qo'ng'iroq tadbirini o'tkazishda mazkur o'quv yilida joriy etilgan o'zgarishlarga bag'ishlangan maqola bo'lishi kerak edi. Ammo Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirini o'tkazish uchun berilgan tavsiyalar ham ta'lim tizimining bir muammosi darajasiga chiqqandan so'ng, ikki maqolani birlashtirib, bitta maqola shakliga keltirdim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga
MUROJAAT

TA'LIM VA TARAQQIYOTNING TAYANCH NUQTASI

Muammo. Butun insoniyat tafakkuri, saviyasi va salohiyati shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda mamlakatimizda avlodlar almashinuvi natijasida yetishib kelayotgan yosh avlod misolida xalqimizning tafakkuri, aqliy va ma'naviy salohiyati yildan-yilga pasayib, umumiy saviyasi tushib bormoqda. Bu yangi O'zbekiston istiqboli, millatimiz uchun katta xavf sifatida yuzaga chiqayotir. Agar uning oldi olinmasa, mamlakatimiz yuz yillar davomida tuzatib bo'lmaydigan fojialar girdobida qoladi.

Muammo alomatlari. Yoshlar orasida bilimsizlik, savodsizlik odatiy holga aylandi. Mamlakatimiz miqyosida diniy mutassabiblik kundan-kunga avj olmoqda. Bu jaholat, ekstremizm va radikal kayfiyatning kuchayishiga sabab bo'layotir. Oilalardagi ma'naviy qashshoqlik va tarbiyasizlik, jinsiy zo'ravonlik, gender diskriminatsiya, ayniqsa, bolalar qotilliklari mutasilsiz sodir bo'lmoqda. Fuqarolar orasida ijtimoiy toqatsizlik avj olmoqda. Ming yillar davomida shakllangan milliy madaniyatimizga putur yetmoqda. Yoshlar orasida ishsizlik kuchaymoqda, boqimandlik kayfiyati avj olib, kambag'allik o'sib borayotir.



Muammo sababi. Mamlakatimizda davlat va hukumatning sa'y-harakatlari bilan ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirilgani sari o'qitish sifati yuksalmayapti, balki orqaga karab ketmoqda. Yoshlar orasida bilim va savod me'yoriy holat bo'lishi o'miga ayrimlaridagina uchraydigan noyob fazilat tusini olmoqda. O'qituvchilarning orasida ham talab darajasidagi savodlilar kamayib bormoqda. Har qanday ishlab chiqaruvchi yetishtirgan mahsulotidan manfaatdor bo'lishiga zid ravishda o'qituvchi mehnatining natijasi bo'lgan o'quvchi(talaba)

larning o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan manfaatdorligi nol darajaga tushib qoldi. O'qituvchilik esa ortiq havas qilib bo'lmaydigan kasbga aylanib bo'ldi.

Muammo yechimi. Ta'lim sifati uchun o'qituvchi mas'uliyati va javobgarligini belgilash muammo yechimining tayanch nuqtasidir. Ta'limning barcha bo'g'inida o'qituvchi mehnat staji, diplom (til bilish darajasi va malaka sertifikat) asosida emas, ta'lim oluvchining o'zlashtirish ko'rsatkichi asosida munosib ish haqi olishi, rag'batlantirish, zarur hollarda

jazolanishi lozim. Aniq o'zlashtirish ko'rsatkichlari tizimi va avtomatik ravishda (qo'l boshqaruvi asosida emas) mehnatga haq to'lanishi, moddiy va ma'naviy rag'batlarga yagona asos bo'lishi lozim. Buning va o'quvchi(talaba)lar bilimni baholashning mustahkam qonuniy asoslari ishlab chiqilishi hamda ularning aniq ishlashi va nazoratining ta'minlanishi - yuqorida zikr etilgan muammoning yagona yechimidir.

Baxtiyor MENGLIYEV
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

MUAMMOLAR

Teran fikrlashi, jamiyat va ta'lim taqdiriga befarq emasligi, o'z sohasining bilimdon vakili ekanligi sabab, shaxsan tanish bo'lmasam-da, professor Baxtiyor Mengliyevni nihoyatda hurmat qilaman, ta'lim muammolari va darsliklar haqidagi maqolalarini diqqat va e'tibor bilan o'qiganman. Ustozning mazkur chiqishida bildirgan fikrlariga ham qo'shilgan holda, maqolada ilgari surilgan ustuvor mantiqqa va asosiy g'oyaga nisbatan ayrim fikrlarimni bildirmoqchiman. Chunki ta'lim tizimimizda muammolar ko'p. Ko'p bo'lganda ham judayam ko'p. Mazkur maqolada ilgari surilgan fikrlardan ayrim iqtiboslar keltirib o'tsam. Professor Baxtiyor Mengliyev asosiy muammo haqida fikr yuritib shunday yozadi:

"Muammo. Butun insoniyat tafakkuri, saviyasi va salohiyati shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda mamlakatimizda avlodlar almashinuvi natijasida yetishib kelayotgan yosh avlod misolida xalqimizning tafakkuri, aqliy va ma'naviy salohiyati yildan yilga pasayib, umumiy saviyasi tushib bormoqda. Bu yangi O'zbekiston istiqboli, millatimiz uchun xavf solayotir".

Bildirilgan fikrlarga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Ammo bu holatni muammo deyishdan ko'ra, ta'limning bugungi ko'rinishi, bugungi holati desak to'g'riroq bo'ladi. Haqiqatan ham ta'lim tizimimiz mana shunday holatga tushib qolgan. Bu holatga tushib qolishiga esa qator muammolar sabab bo'lmoqda. Agarda bu muammolar hal etilmas ekan, ahvol yomonlashsa yomonlashadiki, yaxshilanmaydi. Mazkur holatda mavjud muammolarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Maktab ta'limi tizimidagi muammolar.
 2. Oliy ta'lim tizimidagi muammolar.
- Maktab ta'limi tizimidagi muammolar:
- Ish haqining pastligi;
 - Mehnatga haq to'lashda bilim va malakaga e'tiborning pastligi, natijadorlik, rag'batlantirish va raqobatning yo'qligi;
 - O'quv-moddiy bazaning talab darajasida emasligi;

- Ta'mir masalasi;
- Ta'lim tizimining samarasizligi;
- Aniq ishlab chiqilgan ta'lim tizimining yo'qligi;
- O'qituvchilar bilimi va malakasining pastligi;
- Savodxonlik darajasining pastligi;
- O'quv dasturi va darsliklarning saviyasi;
- Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini qamrab olgan korrupsiya;
- Imtiyozlar;
- Gastarbayerlik falsafasi;
- Nazoratning va buyruqbozlikning haddan tashqari kuchliligi.

Bu muammolar, o'z navbatida yana qator muammolarni o'z ichiga oladi. Maqolada muammo alomatlarining turli ko'rinishlari namoyon bo'layotganligi ko'rsatib o'tiladi:

"Muammo alomatlari. Yoshlar orasida bilimsizlik, savodsizlik odatiy holga aylandi. Mamlakatimiz miqyosida diniy mutassabiblik kundan kunga avj olmoqda. Bu jaholat, ekstremizm va radikal kayfiyatning kuchayishiga sabab bo'layotir". Ta'limdagi muammolar sabab bo'y ko'rsatayotgan, tobora oddiy holatga aylanib borayotgan Baxtiyor Mengliyev tomonidan ko'rsatilgan xavfli alomatlar, jamiyatimiz va Vatanimiz kelajagi uchun jiddiy tahdidga aylanib bormoqda. Ta'limdagi tanazzul nafaqat yuqorida ko'rsatilgan alomatlar va tahdidlarnigina emas, balki yanada jiddiyroq va halokatliroq oqibatlarini ham yuzaga keltirishi, taraqqiyotdan ortda qolish, iqtisodiy tushkunlik, ma'naviy qo'loqlik turli ijtimoiy bo'hronlarga sabab bo'lishi mumkin.

"Muammo sababi. Mamlakatimizda davlat va hukumatning sa'y-harakatlari bilan ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirilgani sari o'qitish sifati yuksalmayapti, balki orqaga qarab ketmoqda. Yoshlar orasida bilim va savod me'yoriy holat bo'lishi o'rniga ayrimlaridagina uchraydigan noyob fazilat tusini olmoqda. O'qituvchilarning orasida ham talab darajasidagi savodlilar kamayib bormoqda".

"Muammo yechimi. Ta'lim sifati uchun o'qituvchi mas'uliyati va javobgarligini belgilash muammo yechimining

ALVIDO,

YOXUD MAKTAB

tayanch nuqtasidir. Ta'limning barcha bo'g'inida o'qituvchi mehnat staji, diplom (til bilish darajasi va malaka sertifikat) asosida emas, ta'lim oluvchining o'zlashtirish ko'rsatkichi asosida munosib ish haqi olishi, rag'batlantirish, zarur hollarda jazolanishi lozim".

ISH HAQINING PASTLIGI...

Turli sohalardagi o'rtacha ish haqi tahlil qilinganda eng past ko'rsatkichlardan biri o'qituvchilar, umumta'lim tizimi xodimlarinikidir. Hatto mamlakat bo'yicha o'rtacha ish haqidan-da kamroq. Ammo bu o'rtacha ko'rsatkichlar haqiqiy voqelikni aks ettirmaydi. Chunki bu o'rtacha miqdorni anchagina salmoqli qilib ko'rsatishda, oyiga 4210\$ maosh oladigan xorijlik o'qituvchilar, yuqori maosh oluvchi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktab o'qituvchilari, olis hududlarga borib ishlovchi 100% ustama oluvchi, vazirlik ustamasini oluvchi o'qituvchilarning hissasi kattagina. Agar ularning salmoqli ulushi bo'lmaganida o'rtacha ish haqi miqdori yanada g'aribroq ko'rinish olgan bo'lardi. Xullas, ish haqi kam, kam bo'lganda ham juda kam...

RAG'BATLANTIRISHNING YO'QLIGI...

Maktab ta'limida hozirgi vaqtda rag'batlantirish tizimi deyarli yo'q. Har holda 2021-2022-o'quv yilidan boshlab yo'q bo'ldi desak bo'laveradi. Ayni paytda ta'limda har qanday yutuqqa erishilmasin, hatto ramziy bir so'm bilan rag'batlantirish imkoniy yo'q. To'g'ri, bir yilda bir marta "O'qituvchilar kuni" bayrami munosabati bilan 460 ming so'm miqdorida rag'batlantirish bor. Ammo buni ham tuman MMTBlar bermaslik uchun ming bahona o'ylab topishadi. Jonli misol, o'tgan yili bayram arafasida maktabimiz direktori fan olimpiadalaridagi natijalari yuqori bo'lgan, oliy toifali uch nafar o'qituvchiga "o'sha" zormanda 460 ming so'mlik rag'batni berish uchun rosa harakat qilib ko'rdi. Ammo tuman MMTBdagi valomatlar o'tkazishmadi. Fidoyilik bilan, joningizni jabborga berib ishlasangiz ham, nomiga dars o'tib kun o'tkazsangiz ham moddiy tomondan hech qanaqa farqi yo'q. Rag'batlantirish bo'lmagan joyda esa rivojlanish bo'lmaydi...

O'QUV-MODDIY BAZA

Ko'pchilik maktablarning, ayniqsa qishloq maktablarining aksariyat qismida o'quv-moddiy baza nihoyatda nochor holatda. Moslashtirilgan binolar, 35-40 nafar o'quvchi o'qiydigan tor sinfxonalar, oddiygina parta, doska kabi jihozlarning yetishmasligi, qishda aksariyat maktablarning talab darajasida isitilmasligi, xullas bu muammolarni sanab tugatish ancha vaqtini oladi. Yetarlicha o'quv-moddiy bazaning yo'qligi esa baribir ta'lim rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi...

TA'MIR MASALASI...

O'quvchilar va ota-onalar nazdida, jamiyat oldida o'qituvchilar obro'si va nufuzini tushirgan holatlardan biri bu maktab ta'miri masalasi bo'ldi. Ta'mir masala-

si mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim tizimining, ayniqsa maktab ta'limining eng og'riqli nuqtasi bo'lib qolmoqda. Sobiq ittifoq davrida ta'mir masalasi-da muammolar deyarli yo'q edi. Bo'yoq, yog'och, sement, ohak kabi materiallar ortig'i bilan ajratilar, ustachilikdan xabardor va yosh o'qituvchilardan ta'mir brigadasi tuzilar, ularga maktabga homiy sifatida birlashtirilgan kolxoz va sovxozlar, korxonalar va tashkilotlar tomonidan 100-200 so'm miqdorida maosh berilardi.

Ammo mustaqillik davrida ahvol keskin o'zgardi. Ta'mirga ta'ma, o'g'irlik kirib keldi. Ta'mirga davlat tomonidan mablag' ajratish hech qachon to'xtamagan. To 2022-yilga qadar har bir maktab uchun mablag' uzluksiz, har yili ajratib kelindi. Bu gapni o'qigan 90% o'qituvchilar xayolidan "yolg'on" degan fikr o'tganini sezib turibman. Chunki bu mablag'lar 80-90% maktablarda ta'mir uchun ishlatilmagan. Davlatning maktablar ta'miri uchun mablag' ajratishini bilmaydigan o'qituvchilar ham juda ko'p bo'lsa kerak. Lekin doimo mablag' ajratilgan. "Homiylik, sinf fondi, maktab fondi, o'z xonasini o'zi ta'mirlash" kabi tashabbuslar soyasida ko'rinmay, unutilib ketgan bu mablag'lar maktab rahbarlari tomonidan muntazam o'zlashtirib kelingan. Bu holatni tekshirib aniqlashning ham imkoniy yo'q edi. Chunki ta'mir uchun mablag' materiallar va ashyolar uchun ajratiladi. Ta'mir esa o'qituvchi va o'quvchilar hisobidan bo'lsada qilinardi. Ta'mirga mablag' ajratildimi? Ajratildi. Ta'mir qilindimi? Qilindi. Qanday qilganligi bilan esa deyarli hech kimning ishi bo'lmasdi...

Ko'plab direktorlar esa yanada oson va betashvish yo'lini ixtiro qilishgandi. Ya'ni ta'tildan foydalanardi:

- Ta'mirni bir kunda qilib bo'lda, uch oy damingni ol. Ta'mirni tugatmasang sentabrgacha maktabda bo'lasan.

Albatta, bu o'qituvchilar uchun ham manfaatli edi. Ikki-uch kunda, o'quvchilardan yig'gan mablag'ning yetmaganiga o'zidan qo'shib, usta yollab bo'lsa-da, ta'mirni yakunlab, yoz bo'yi o'z tashvishlari, o'z tirikchiligi bilan band bo'lardi. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Kimdir ishonishi, kimdir ishonmasligi mumkin, bizning maktabda hech qachon na o'qituvchidan, na o'quvchilardan ta'mir uchun mablag' yig'ilgan. O'tgan o'quv yiliga, ya'ni 2022-yilgi ta'mirga qadar. Ma'lumki, 2022-yildan boshlab Prezidentimiz tashabbusi va hukumatning tegishli normativ-huquqiy hujjatlari asosida, maktablar va o'qituvchilar ta'mirdan ozod etilib, ta'mir to'laligicha hokimiyatlar zimmasiga yuklandi. Ammo hozircha biror maktabning hokimiyat tomonidan ta'mirlanganini ko'rish u yoqda tursin, hatto eshitmadim. Faqat maktab ta'miri uchun ajratilayotgan mablag'lar maktablarga emas, hokimiyatlarga beriladigan bo'ldi. Ammo bu mablag'lar nimaga sarflanayotgani yolg'iz Xudoga ayon. Chunki ta'mir hanuz maktablar va o'qituvchilar zimmasida. O'rganib, odat tusiga kirgan jarayon. Eng achinarlisi, ta'mir uchun ajratiladigan mablag'lar hisobiga kelib tushayotgan va ta'mirlash vazifasi bo'lgan hokimiyatlar ta'mirni hanuz maktablardan talab qilishmoqda.

TA'LIM TIZIMI MUAMMOSI...

Maqollar xalq donishmandligining ramzi hisoblanadi. Ammo shunday ma-

SO'NGGI QO'NG'IROQ

TA'LIMIDAGI MUAMMOLAR

qollar borki, bemalol unga muqobil maqol yaratilsa ham bo'laveradi. Masalan "Ikki kemani ushlagan g'arq bo'ladi". Bu maqolni ta'lim tizimimizning bugungi holatiga qiyosan "Ikkala kemadan voz kechgan, cho'kib ketadi" deb qo'llasak ham bo'ladi shekilli.

Ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ko'p talofat ko'rgan sohalardan biri ta'lim sohasi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Buning sababi iqtisodiy ahvolni hisobga olib, mentalitetimizdan kelib chiqqan holda, mavjud o'quv-moddiy bazani saqlab, milliy talim tizimini yaratish o'rni, mavjud tizimdan voz kechilib, tizim yo'q qilinish, o'ttiz yildan oshiq vaqt davomida turli ta'lim tizimlariga havas qilinish, turli tajribalar o'tkazish bilan vaqt o'tkazildi. Eng yomon tomoni, bu tajribalarning boshida tajribali ustozlar, olimlar emas, turli darajadagi populistlar, hokimiyat idoralari, Davlat xavfsizlik xizmati, ichki ishlar organlari, umrida bir soat dars o'tib ko'rmagan tuman va viloyat XTBlarning "amaldorcha"lari turishdi. Shunday davrlar bo'ldiki, maktablar faoliyatiga baho, sinfxonalarda partalarning kirill alifbosidagi "II" harfi shaklida joylashtirilganiga qarab berildi. O'sha davrda dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimi hisoblangan, amalda qo'llanib turilgan sovet ta'lim tizimidan voz kechildi.

Yana eng yomon tomoni, sovet ta'lim tizimidan, faqat sovetligi uchun voz kechildi. Yomonligi yoki kamchiliklari yoxud uning o'rniga, undan mukammalroq va yaxshiroq ta'lim tizimiga o'tilayotganligi uchun emas... Bugungi kunda sobiq ittifoq davlatlarida ham sovet ta'lim tizimidan deyarli voz kechilgan. Sovet ta'lim tizimi faqatgina Belorussiyada saqlanib qolgan. Natijalarga esa faqat havas qilishimiz mumkin. Masalan, matematika fanidan xalqaro olimpiadalarda erishilgan natijalar: o'zbekistonlik o'quvchilar 10 ta kumush, 29 ta bronza medal sohibi bo'lishdi. O'zbekiston aholisi 36 million kishidan iborat. Belorussiya o'quvchilari esa matematika fanidan o'tkazilgan xalqaro fan olimpiadalarida 15 ta oltin, 57 ta kumush, 80 ta bronza medal sohibiga aylandi. Belorussiya aholisi esa 10 million kishidan kamroq. Sarhisobini chiqarish, natijalarni solishtirishni mushtariy ixtiyoriga havola etgan holda, bir narsani ta'kidlashimiz mumkin: izohga hojat yo'q.

Bizda esa turli mamlakatlardan, ularning ta'lim tizimidan ko'chirma olish jarayoni hanz davom etmoqda. 2023-yil 3-iyun kuni telegramdagi "A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti" saytida e'lon qilingan xabardan iqtibos:

"Farg'onada 2023-2024-o'quv yilidan boshlab 18 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida Yaponiya ta'lim metodikasini tajriba-sinov tariqasida joriy qilish rejalashtirilgan. Yaponiyalik ta'lim bo'yicha mutaxassis Goto Mikako tomonidan mazkur maktablarning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari uchun viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida trening-mashg'ulotlar tashkil etildi.

Unda ishtirokchilar Yaponiya ta'limining yutuqlari, darslarni tahlil qilish, o'qituvchilar o'rtasida o'zaro tajriba almashish, jamoani boshqarishning o'ziga xos usullari bilan tanishdilar".

Finlandiya, Singapur, Yaponiya... Hali bu ro'yxat yana uzoq davom etadi shekilli. Ta'lim tizimimiz tajriba quyoncha-

si mavqeyini bishqa sohalarga bermaydi, toki zamon va davr bilan hamnafas, millatimizning intellektual potensialini namoyon eta oladigan o'z milliy ta'lim tizimimizni yaratmagunimizcha.

SAMARASIZ TA'LIM TIZIMI...

Amaldagi ta'lim tizimimiz ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan, o'ta markazlashgan, korrupsiogen holatlar uchun juda qulay, samaradorligi nihoyat darajada past bo'lgan bir tizim. Taniqli ijodkor va faxriy ustoz Xudoyberdi Komilovning ta'lim tizimimiz haqidagi fikrini keltirib o'tsam:

"O'zbekistondan boshqa dunyoning biror mamlakatida 12 yillik, majburiy o'rta, umumiy, ommaviy, yetti tilda, bepul davlat ta'limi yo'q. Qayerdadir kamroq, qayerdadir ixtiyoriy, qayerdadir pullik va hokazo...". Haqiqatan ham, ulkan va samarasiz ta'lim tizimi o'rniga ixchamroq va samaraliroq ta'lim tizimi joriy etish foydaliroq bo'lardi. Chunki o'quvchilarga berilayotgan umumiy o'rta ta'limning maqsadliliigi va sifat darajasini jiddiy tahlil qilib ko'radigan fursat yetdi:

1. Umumiy o'rta ta'limning maqsad va vazifalari nimadan iborat ekanligini aniq belgilash.

2. Umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilari ana shu maqsad va vazifalarga qay darajada javob bera olmoqda?

Birinchidan, umumiy o'rta ta'lim dasturi, hozir qabul qilinib, amaliyotga joriy etilayotgan Milliy o'quv dasturi ham, ortiqcha va keraksiz bilim, malaka va ko'nikmalardan iborat bo'lib qolgan. Ya'ni maqsadlilik, umumiy o'rta ta'lim orqali beriladigan bilim, keyingi bosqich - oliy ta'lim uchun qay darajada poydevor bo'lib xizmat qilmoqda? Oliy ta'lim qabulida abituriyentlardan olinayotgan imtihon natijalarining qanchasi maktablarning xizmati, qanchasi o'quv markazlari, repetitorlarning? Ammo shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish joiz, maktablarning xizmati bo'ladimi, repetitorlarning xizmati bo'ladimi, oliy ta'limga qabul qilinayotgan abituriyentlarning bilim darajasi past emas. Biroz noqulay o'xshatish bo'lishi mumkin-u, ammo yuqori ball bilan o'qishga qabul qilinayotgan abituriyentlarning bilim darajasi oliygohlarda dars berayotgan professor-o'qituvchilar bilimidan ancha baland. So'zlarim kimgadir yoqmagani aniq. Ammo buni oddiy yo'l bilan isbotlash mumkin, maksimal ball to'plagan 100 nafar abituriyent bilan oliygohda dars beradigan 100 nafar professor-o'qituvchidan OTM qabulida qo'llanayotgan besh fandan iborat blokli test olinsa, menimcha abituriyentlar ikki baravar ko'p ball to'plasa kerak. Shu nuqtayi nazardan yondashib, umumiy o'rta ta'lim tizimini hayotga moslashtirgan holda anchagina ixchamlashtirish, bu ixchamlashtirish hisobiga o'quv-moddiy bazani kuchaytirish, xodimlarning ish haqini oshirish, natijada sifat va samaradorlikni ko'tarish mumkin bo'lardi.

O'QITUVCHILARNING BILIMSIZLIGI...

Bilimdon va fidoyi ustozlardan uzr so'ragan holda aytishim mumkinki, hozir faoliyat yuritayotgan ustozlarning chorak qismining, balki yarmining, ayniqsa

yosh o'qituvchilarda bu ko'proq seziladi, umumiy akademik savodxonlik darajasi juda past. Afsuski, o'z fanini chuqur bilmaydigan o'qituvchilar ham bor. Ammo o'z fanini yaxshi biladigan o'qituvchilarda ham umumiy akademik savodxonlik darajasi juda sayoz. Buning asosiy sabablaridan biri kitobxonlik darajasining pastligi bo'lsa, ikkinchi eng muhim sabablaridan biri esa maktabda o'quvchilar, hatto o'qituvchilar diqqatining OTMga kirishda kerak bo'ladigan bitta yoki ikkita fanga qaratilishidir.

Bundan tashqari, malaka toifalari statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ahvol yanada achinarliroq ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bunda ham ikki xil sabab ko'zga tashlanadi. Malaka toifalari o'rtasidagi ish haqi farqining kamligi sabab, ko'pchilik o'qituvchilar malaka toifasini ko'tarishni xohlashmaydi, xohlaganlarining esa bilim va malakalari yetmaydi.

Xullas, o'qituvchilar bilim saviyasi maqtanarli darajada emas.

SAVODXONLIK DARAJASINING PASTLIGI...

Jamiyatimizning va ta'lim tizimining eng katta fojeasi kitobxonlikning unutilganligi bo'ldi. Siyosiy eyforiyalar ta'lim va madaniyatimiz ildiziga bolta urdi. Ittifoq davrida ilm-fan yutuqlari yuqori bo'lganligining turli sabablarini keltirishadi. Menimcha, asosiy sabab juda boy va keng tarmoqli kutubxonalar tarmog'ida edi. Har bir maktabda, har bir uchastkada (hozirgi mahalla), kolxoz va qishloq sho'rosi tasarrufidagi kutubxonalar, tuman va viloyat markaziy kutubxonalar, hatto kasalxonalarda kutubxonalar bo'lardi. 1975- va 1983-yili Surxondaryo viloyat markaziy shifoxonasida davolanman. Kasalxona kutubxonasining ko'lami, undagi noyob kitoblarning naqadar ko'pligi aqlni shoshiradigan darajada edi. Davolanish o'rniga kitob o'qib, vrach va hamshiralardan rosa gap eshitganman.

Savdodagi kitoblarning narxi ham va bosma nashrlarga obuna ham juda arzon edi. Kitobxonlik darajasi, savodxonlik darajasi yuqori edi. Siyosiy sabablar bilan yuz millionlab nusxa kitoblar yo'q qilindi. O'rni to'ldirishning esa imkoni bo'lmasdi. Ularning o'rni hozirgacha qoplangan emas. Savdoda kutoblar juda qimmat, bosma nashrlarning obuna narxi esa osmondan. Bu esa savodxonlikni o'ldirdi. Hozir ko'pchilik oliy ma'lumotli mutaxassislar eplab ariza yoza olmaydi. Eng yomoni esa, savodsizliklaridan uyalishmaydi. G'urur bilan "Xato yozaman" deydiyanlar tobora ko'payib bormoqda.

DASTUR VA DARSLIKLAR SAVIYASI...

Milliy o'quv dasturi qabul qilingach, mazkur dastur asosida darsliklar yaratilgach, saviya yanada ochiq ko'rinib qoldi. Eng yomon tomoni, ta'lim tizimining yuqori bo'g'inidagi turli guruhlar, achinarlisi, ko'pchiligi ta'lim sohasiga aloqasi yo'q kazo-kazolar tomonidan shakllantirilgan guruhlar dastur va darsliklar chop etish sohasini biznesga aylantirishmoqda. Bu kurash nafaqat darsliklar sohasida, balki boshqaruv sohasida ham avj olmoqda. "So'nggi vaqtlarda ta'lim tizimidagi turli ekspert va mas'ullar bilan suhbatlashib shuni anglayapmanki, tizimda bir-biriga dushman, o'zaro faoliyatini inkor qiluvchi

"aql markaz"lari vujudga kelgan. Menimcha, bu hozir ta'lim ustida olib borilayotgan turli "eksperiment"lardan ko'ra halokatliroq oqibatlariga sabab bo'ladi", deb yozadi Facebookdagi sahifasida Sa'dullo Quronov.

Undan keyin "ma'muriy islohotlar" deb nomlangan jarayon davomida MTV, XTV, PTMA (sobiq PIIMA) bitta vazirlikka birlashdi. Hamkasblar va mutaxassislar bilan suhbatlardan shuni sezdimki, Prezident ta'lim muassasalari agentligidan katta jamoa vazirlikka olib kelinib, "sifatli ta'lim qanday bo'lishini mana biz bilamiz" deganday kayfiyat shakllangandan keyin "XTV"chilar va "PIIMA"chilar o'rtasida qandaydir tushunarsiz munosabatlar shakllangan. Shaxsiy munosabatlar va boshqa sabablar tufayli ishini biladigan ayrim mutaxassislar jarayondan chetlatilgan.

Undan keyin esa vazirlikning bir qancha muhim vakolatlarini olib qo'ygan va vazirlikdan teparoqda - bevosita Prezident Administratsiyasi huzurida bo'lgan "super" markaz - Ta'limni rivojlantirish Respublika ilmiy-metodik markazi tuzildi, unga "Avtotest", "Novda", "Yagona imtihon markazi" kabi tijoriy strukturalarni boshqargan rahbarlar tayinlandi.

Mana endi bir qancha "markaz"larning har biri "arqon"ni o'ziga tortishga harakat qilmoqda. Bir hamkasbim o'zaro suhbatda aytganidek, "bunday raqobat"da kim yutsa ham, yutqazadigan tomon aniq - bu o'n minglab maktablarda tahsil olayotgan bolalar, ularning ustozlari va otalaridir". Mazkur jarayonlar darsliklar saviyasiga va davlat g'aznasiga qancha zarar yetkazayotganligining o'ziyoq ulkan muammo. Ammo ta'lim sifatiga yetkazilayotgan zarar undanda ulkan va undanda fojealiroqdir. O'quvchilarga puxta bilim berishga xizmat qiladigan mukammal darsliklar yaratilmas ekan, ta'lim sifati haqida orzu qilishga ham hojat bo'lmasa kerak.

KORRUPSIYA...

O'tgan asrning 70-80-yillarida maktab tizimi korrupsiyadan xoli tizim edi. O'lik maosh tarqatilyotganda, direktorning oldida anchagina tanga-chaqalar turardi. Ish haqidan bir tiyin ham olib qolinmasdi. Mikrohududdan OTMni bitirib kelgan xodimni direktor yoki "zavuch" shaxsan uyiga borib ishga taklif qilardi. Qorovul, "zavxoz", farroshlar ham iltimos qilib ishga olinardi. Hozir-chi?

Hozir aksariyat maktablarda hatto chorak shtat farroshlikka kirish uchun ham "ko'k"ida falon summa qistirish kerak bo'ladi. O'qituvchilik va boshqa shtatlarning o'z "narx"i bor.

Tuman XTB(MMTB)larda "yig'ish"ning yuzlab aql bovar qilmas yo'llarini o'ylab topishgan. Oddiy seminarlar, yig'ilishlar. Borsangiz o'zingizdan yig'ib olishadi. Bormasangiz direktor va o'rinbosarlari orqali yig'ib olinadi. Bayramlar, tadbirlar, hisobotlar, tekshiruvlar... Viloyat miqyosiga o'tilganda, yig'ishlar soni kamayishi mumkin, ammo miqdori keskin oshadi. Xullas, korrupsiya ta'limning barcha bo'g'inlarini qamrab olgan ulkan bo'g'ma ilonga aylangan...

IMTIYOZLAR

Imtiyozlar nafaqat oliy ta'lim tizimiga, balki maktab ta'limi tizimiga ham, shuningdek, mamlakat kelajagi uchun ham ulkan tahdid va zarardir. Maktab o'quvchilari uchun imtiyozlar bilim olishdan ko'ra

(Davomi 4-betda)

(Davomi. Boshi 2–3-betlarda.)

imtiyozlar uchun harakat qilish muhitini vujudga keltirib, o'quvchilarda motivatsiya ruhining so'rib borishiga xizmat qilmoqda. Mukammal bilim olish uchun motivatsiya beradigan, oliygohlarda sifat ko'rsatkichini oshirishga, mamlakat uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun xizmat qiladigan fan olimpiadalari borasidagi imtiyozlar esa deyarli tugatildi. Sho'ro davrida, mustaqillikning dastlabki yillarida ham amalda bo'lgan Respublika fan olimpiadalari g'oliblarini imtiyozli, imtihonsiz talabalikka qabul qilish tizimi yo'q qilinib, o'rniga olimpiadada qatnashgan fani bo'yicha maksimal ball berish tizimi joriy etildi. Fan olimpiadalarida imtiyoz uchun talab etiladigan 76 ballni to'plab g'olib bo'ladigan o'quvchilar soni o'rta 50 nafar atrofida bo'lardi, ya'ni ba'zi yillarda sal ko'proq, ba'zi yillarda esa sal kamroq. Ammo oliygohlarda har yili shuncha lokomotiv-talabalar tahsil olish imkoniga ega bo'lardi. Ular boshqa talabalar uchun o'rnak, namuna edi. Ta'lim sifatining oshishi uchun xizmat qilardi. Ammo ana shu bilimlilar uchun berilgan imtiyozlar tarashlanib, o'rniga yetuk bilimga ega bo'lmagan mingminglab yoshlar uchun 41 turdagi, har bir yo'nalishda minglab o'rinlar ajratilgan ulkan imtiyozlar tizimi yaratildi. Fan olimpiadalari uchun imtiyozlar esa deyarli yo'q bo'ldi.

Blogger X.Xudoyberdiyev kanalida 2023-yil 28-iyunda e'lon qilingan quyidagi ma'lumotda uning huquqiy asoslari ham ko'rsatib o'tilgan: "2019-yil 3-maydagi PQ-4306-sonli Prezident qaroriga binoan, quyidagi 5 ta xalqaro olimpiada g'oliblariga davlat OTMLariga test sinovsiz va qo'shimcha imtihonsiz qabul qilish imtiyozi beriladi:

1. Xalqaro matematika olimpiadasi – International Mathematical Olympiad (IMO).
2. Xalqaro fizika olimpiadasi – International Physics Olympiad (IPhO).
3. Xalqaro kimyo olimpiadasi – International Chemistry Olympiad (IChO).
4. Xalqaro biologiya olimpiadasi – International Biology Olympiad (IBO).
5. Xalqaro informatika olimpiadasi – International Olympiad in Informatics (IOI).

Boshqa olimpiadalar-chi?

Yuqorida sanalgan 5 ta xalqaro olimpiadadan boshqa barchasida g'olib bo'lgan o'quvchilarga test sinovsiz o'qishga kirish huquqi berilmaydi.

Masalan, asosiy fan olimpiadalarining respublika bosqichida 1-, 2- va 3-o'rinlarni egallagan ishtirokchilarga davlat OTMLariga kirish imtihonlarida mutaxassislik fani bo'yicha maksimal ball olish huquqini beruvchi va uch yil muddat davomida amal qiluvchi sertifikat taqdim qilinadi. Boshqacha aytganda, respublika fan olimpiadasida sovrindor bo'lganlarga o'sha fandan maksimal ball beriladi xolos. Masalan, kimyo fanidan respublikada kuchli uchlikka kirsam, kimyo fanidan maksimal ball beriladi. Agar kimyo 1-mutaxassislik fani bo'lsa, unda 93 ball, agar 2-mutaxassislik fani bo'lsa, 63 ball beriladi. Boshqa fanlarni o'zi ishlashi kerak bo'ladi. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan respublika fan olimpiadasida sovrindor bo'lgan o'quvchilarga mutaxassislik fani sifatida matematikadan maksimal ball beriladi". Bu bildirilgan fikr va mulohazalar, oldi-qochdi gaplar emas, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi real voqelik. Rasmiy hujjatlar orqali fikrimni isbotlab ketsam. O'qishga kirishda 41 imtiyoz bor. Davlat qabul komissiyasining 2022-yil 29-dekabrda 10-son majlis bayoni bilan "Davlat OTMLariga kirish uchun berilgan imtiyozlarning yagona REYESTRI" tasdiqlandi.

Reyestrda 41 ta imtiyoz turi o'rin olgan:

1. Imtihonsiz qo'shimcha davlat granti asosida talabalikka tavsiya etish bo'yicha imtiyozlar (15 ta).

2. Imtihonsiz bazaviy to'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etish bo'yicha imtiyozlar (4 ta).

3. Tegishli fan bo'yicha imtihondan ozod etilib, ma'lum miqdorda ball berish bo'yicha imtiyozlar (5 ta).

4. To'plangan ballga nisbatan qo'shimcha ball berish bo'yicha imtiyozlar (2 ta).

5. Qo'shimcha kvota doirasida tanlovda ishtirok etish bo'yicha imtiyozlar (12 ta).

6. Qo'shimcha imtiyozlar (3 ta).

Mazkur 6 yo'nalishdagi imtiyozlarning birinchi uch yo'nalishdagi 24 turi bevosita imtihonlardan ozod etishni ko'zda tutgan. Qolgan uch yo'nalishdagi 17 turdagi imtiyozlar ham, imtiyoz egalari o'ziga nisbatan bilimlir yoshlar o'rniga o'qishga kirishi uchun xizmat qiladi. Endi oliygohdagi o'qish jarayonini tasavvur qilish uchun juda ham aqlli va dono bo'lish shart emas, shekilli.

Imtiyozlar joriy etilar ekan, u ezgulik va yaxshilik uchun, rivojlanish va taraqqiyot uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi. Ammo yuqoridagi 41 ta imtiyozni mana shu maqsadlar uchun xizmat qiladi deb kim ayta oladi? Menimcha, bu imtiyozlar faqatgina jamiyat tanazzuli uchun xizmat qiladi.

To'g'ri, jamiyatning qaysidir tabaqalari uchun, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish uchun, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun imtiyozlar zarur. Ammo bu imtiyozlar jamiyat va mamlakat tanazzuli hisobiga, o'quv imtiyozlari shaklida emas, balki moddiy qimmatliklar va pul mablag'lari shaklida bo'lsa adolatliroq bo'lardi.

GASTARBAYTERLIK FALSAFASI

Elas-elas eslayman. O'tgan asrning 60–70-yillarida, qishloqlarda yevropa millatiga, ya'ni rus, ukrain, moldavan, tatar millatiga mansub, ustachilik, uy-ro'zg'or yumushlari va turli qora yumushlarni bajaradigan, xizmat haqi evaziga ovqat va ichimlikka rozi bo'lib ketaveradigan "inson"lar bo'lardi. Inson so'zini qo'shtirmoqqa olib yozishimga sabab, qishloq ahli ularni unchalik ham inson o'rnida ko'rishmasdi. Xullas, o'tmishdagi bu voqeliklar menga gastarbayerlar haqidagi ilk tasavvurlarni bergan. Keyinroq esa badiiy adabiyot orqali gastarbayerlar olami haqidagi tasavvurlarim yanada boyidi. 9-sinfda "Chet mamlakatlarning iqtisodiy geografiyasi" kursini o'rganayotganimda esa gastarbayerlikka nisbatan ijtimoiy-siyosiy qarashlarni o'rgandim va gastarbayerlar, hozirgi zamon dunyosining qora bo'yoqlardagi, xorijda rizqini terishga mahkum bo'lgan mehnatkashlar qatlami ekanligini tushunib yetdim. O'sha davrdayoq ularga nisbatan qalbimda achinish tuyg'usi shakllangan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng uzoq kuttirmay, mamlakatimizda ham gastarbayerlar qatlami vujudga kela boshladi. Dastlab Toshkent, Samarqand kabi shaharlardan, Xorazm va Farg'ona vodiysidan "xorijga ketib, katta pul ishlab kelganmish" degan mish-mishlar kela boshlagan, turli shov-shuvlar tarqalgan bo'lsa, tezda surxondaryoliklar ham mehnat muhojirlari safida o'z o'rinlariga ega bo'lishdi.

Tan olamizmi yoki yo'qmi, xorijga ketganlarning mo'maygina mablag' topib kelishi sir emas. Bu mablag'lar mamlakatimiz iqtisodini harakatga keltirib turgan asosiy manbaga aylanib ulgurdi. Yuzaki xomcho'tlarimga ko'ra, xorijdan kelayotgan mablag'larning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, qishloq xo'jaligi, transport, sanoatning hissasidan ko'ra salmoqliroq. Chunki har yili gastarbayerlar tomonidan O'zbekistonga yuborilayotgan milliardlab dollar mablag' bo'lmasa yuqoridagi sohalar inqirozga yuz tutgan

ALVIDO,

YOXUD MAKTAB

bo'lardi. Lekin mehnat muhojirlari, ya'ni gastarbayerlar ta'lim tizimiga ikki tomonlama zarba berib, katta zarar yetkazdi.

Birinchi, ota-onalarning yillar davomida farzandlaridan olisda bo'lishi ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir o'tkazib, tarbiyasini izdan chiqardi. Ota-ona nazoratsiz qolgan bolalarning bir qismi virtual olam girdobiga sho'ng'igan bo'lsa, bir qismi "ko'cha bolalari"ga aylanib ulgurishdi. Yana bir qismi esa pul topish ilinjida turli mavsumiy ish va yumushlar bilan band. O'qish, bilim olish ularning nazdida keraksiz, ortiqcha tashvish bo'lib qoldi. Mehnat muhojirlarini, ularning yurish-turishi, kiyinishi, mashina va uy-joylarini ko'rish, ularga nisbatan havasni tug'dirayotgan bo'lsa, xorijga ishga bormagan ishchi va xizmatchilarning, o'qituvchilar va shifokorlarning moddiy ahvolini ko'rib esa, o'qish, ma'lumotli mutaxassis bo'lish fikridan voz kechishmoqda. Ya'ni, gastarbayerlik falsafasi ta'lim rivoji uchun jiddiy tahdidga aylanib ulgurdi.

HADDAN TASHQARI KUCHLI NAZORAT

Ta'lim tizimida haddan tashqari kuchli nazorat mexanizmi yaratilgan. Nazorat bo'lganda ham, xato va kamchiliklarni topish va tuzatishga qaratilgan nazorat tizimi emas, ayb topish, jazolash, vazifadan ozod etish, pullash yoki "bosti-bosti" qilib "soqqasini undirish"ga qaratilgan nazorat tizimi.

Mutlaqo boshqa topshiriq bilan maktablarga tashrif buyurishadi va ayb qidirishga tushishadi. O'zlariga berilgan topshiriqqa aloqasi bo'lmagan, buyruqda ko'rsatilgan joylarning titi-pitisini chiqarib, arzimagan bir kamchilik topishsa bas, qo'ylari egiz qo'zilaydi. Bir tomondan ziyofat, bir tomondan cho'ntak qappayadi. Topshiriq ham o'z yo'liga, juda nari borsa "hammasi joyida" degan ma'lumotnoma yoziladi...

Xullas, nazorat tizimi talim rivoji uchun emas, korrupsiya rivoji uchun xizmat qilmoqda...

2. QO'NG'IROQLAR TARIXI YOXUD SO'NGGI QO'NG'IROQ

Ta'lim muassasalarida dastlabki qo'ng'iroqlardan foydalanish Qadimgi Yunonistonda boshlangan. Birinchi qo'ng'iroq Aflotun akademiyasida joriy qilingan. XVII asrga kelib qo'ng'iroq uchun yangi tizimdan foydalanishga o'tiladi. Chexiyalik o'qituvchi Yan Amos Komenskiy darslarni qo'ng'iroq bilan tugatish g'oyasini ilgari surib, sinfda ko'chma yoki statsionar qo'ng'iroqdan foydalanishni ko'ng'iroqlardan dastlab dars boshlanishi va darsning tugashini bildirish, belgilash maqsadida foydalanishgan. XX asrga kelib, qo'ng'iroqning ancha takomillashgan turi – elektr qo'ng'iroqlar keng tarqaldi. Va aynan shu davrga kelib, o'quv yilining oxirini so'nggi qo'ng'iroq tadbiri bilan yakunlash urfga aylana boshladi. So'nggi qo'ng'iroqni 25-may sanasida nishonlash 1948-yili Rossiyada boshlangan. Bu an'ana Krasnodar shahridagi 182-maktab direktori Fyodor Bryuxovetskiy tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan.

Fyodor Fyodorovich Bryuxovetskiy 1915-yil 15-may (yangi kalendar bo'yicha 29-may) kuni Yekaterinador (hozirgi Krasnodar) shahrida tug'ilgan, 1943-yildan to 1985-yilgacha, ya'ni 42 yil davomida Krasnodar shahridagi 182-maktabda direktorlik qilgan. Sobiq Ittifoq ta'lim tizimining, sovet pedagogikasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Sho'ro davri pedagogikasidagi ko'plab qadriyatlar bevosita F.Bryuxovetskiy nomi bilan bog'liq. Nafaqat "So'nggi qo'ng'iroq" bayramini, shuningdek, bilimlar kuni, ya'ni "Birinchi qo'ng'iroq" bayramini, maktabda navbatchi sinflarni tashkil qilish, 1-sinf o'quvchilari uchun alifbo bilan xayrlashish yoki hozirgi vaqtdagi "Alifbe bayrami" kabi an'analarni ham ta'lim tizimiga Fyodor Bryuxovetskiy olib kirgan. Keyinchalik bu g'oyalar butun ittifoq bo'yab yoyilgan va Ittifoq ta'lim tizimining ajralmas qadriyatlariga aylangan. Birinchi marta SSSRdagi barcha maktablar ma'muriyati 1971-yil 25-mayda bunday tadbirni o'tkazish to'g'risida rasmiy buyruq oldi. Sobiq Ittifoqning barcha hududlarida ana shu sanadan boshlab "So'nggi qo'ng'iroq" rasmiy tadbir sifatida nishonlana boshlanadi. Garchand turli muddatlarda va turlicha shakllarda bo'lsa-da, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida so'nggi qo'ng'iroq tadbiri o'tkaziladi. Masalan, Yaponiyada ham o'quv yilining tugashi katta voqea sanaladi. Bu kunda butun maktab sport yoki faollar zalida yig'iladi. Marosim Yaponiya bayrog'iga ta'zim bilan boshlanadi, so'ngra maktab madhiyasi yangraydi. Bitiruvchilar madhiyasi maktabda oxirgi marta kuylayotganiga urg'u beriladi. Bayram davomida birma-bir chaqirilib, ularga diplom beriladi.

AQSH va Xitoy kabi dunyoning eng ulkan davlatlarida, shuningdek, Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrika davlatlarida ham "So'nggi qo'ng'iroq" o'ziga xos tarzda nishonlanadi. Turlicha va turli muddatlarda nishonlanishiga qaramasdan, "So'nggi qo'ng'iroq" ta'lim tizimining ajralmas qadriyatiga aylanib ulgurgan.

"O'ZGALAR USTIDAN KULMA..."

Ota-bobalarimiz tomonidan ongimizga singdirilgan tarbiyaning islomona va sharqona qoidalaridan biri o'zgalardan ustidan kulmaslik. Bu haqida ko'plab maqollar, purhikmat iboralar yaratilgan. O'zgalarning xatti-harakati yoki jismoniy, aqliy kamchiliklari ustidan kulgan insonlarning vaqt o'tishi bilan o'zlarining o'sha holatga tushib qolganiga ko'p bora shohid bo'ldim. Adashmasam, 1984-yil dekabr oyining oxirlari edi. Maktabda men o'qituvchi, sinfdosh qizlarimizdan biri – farosh bo'lib ishlardik. Ikkinchi smenaning oxirgi soati, kun kech bo'lib qolgan, havo sovuq, "O'qituvchilar xonasi"da uch-to'rt o'qituvchi pechka atrofida gurunglashib o'tirgandik. To'satdan eshik ochilib sinfdoshim chaqirib qoldi:

– Sinfdosh, bir qarab yuboring.

Yaqinda uzoq tomondagi bir yigitga fotiha qilingan qiz bulaning chaqirishidan o'ng'aysizlandim. O'zimni eshitmaganga soldim. O'tirganlar orasida sinf rahbarimiz ham bor edi:

– Chiqmaysanmi? Seni chaqirayapti.

Xijlatomuz, qizargancha xonadan chiqdim:

– Ha, sinfdosh, tinchlikmi?

SO'NGGI QO'NG'IROQ

TA'LIMIDAGI MUAMMOLAR

– Anavi, – yerga qarab qizargancha dedi, – uchrashuvga kelibdi. Bir o'z zim chiqmayin. Oldimizda turib turing. Ikkalimizning birga turganimizni birovyarim ko'rib qolsa, gap-so'zga qolib ketaman.

Rozi bo'ldim. Yigit bilan ko'rishib-so'rashgach, sal nariroqqa borib turdim. Ular besh-o'n daqiqa gaplashib, nimalarnidir kelishib olishdi. Yigit o'sha davr uchun g'alatiroq, mayka ustidan qishiki kurtka kiyib olgandi. Uning kiyinishi sabab sinfdoshimning ustidan rosa kulgandim, hatto bo'lajak turmush o'rtog'iga "Ko'ylagi yo'q kuyov" deya laqab ham qo'yib oldim. Hozirgi kunga kelib esa bunaqa kiyinish deyarli urfga aylanib ketdi. Hatto harbiylar shunaqa kiyinishmoqda. Ha-ya, sinfdoshimning eri 10–15 yilcha birga yashashgach, vafot etdi va sinfdoshim ota uyiga qaytdi. Yaqinda qishloqda bo'layotgan to'yga futbolka ustidan kurtka kiyib bordim. To'ydan qaytayotgan vaqtimda yo'lda o'sha sinfdoshim to'g'ri kelib qoldi. Qirq yil oldingi gap-so'zlar esidan chiqmagan ekan:

– Ko'ylagi yo'q sinfdosh, yaxshimisiz? – deya so'rashdi.

Ha, kulganga qaytadi deganlari to'g'ri ekan. Huquqshunoslik fani to'garagi mashg'ulotlarida ba'zan o'quvchilar qiziqishini oshirish va qisqa muddatli aqliy tanaffus berish, yengil yumor va kulgu-hazil uchun Meksika va AQSHning ayrim shtatlarida amalda bo'lgan, oldingi asrlarda qabul qilingan, o'ta kulguli qonunlar bilan tanishtirardim.

Chaladumbul, savodsiz kimsalar tomonidan qabul qilingan, o'ta bachkana, real voqelikka butunlay to'g'ri kelmaydigan, o'ta kulguli bu qonunlarni o'qib, o'quvchilar bilan birgalikda rosa miriqib kulganimiz. Ammo vaqti kelib mamlakatimizda ham mana shunday mantiqsiz huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmagan ekanmiz. Ana shunday normativ-huquqiy hujjatlardan biri Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2023-yil 15-may sanasida qabul qilingan "Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi ta'lim muassasalari rahbarlariga" deb nomlangan 01-06/3-255-sonli xati bo'ldi desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Mazkur xat orqali berilgan topshiriq, agarda keyingi yillarda ham davom etadigan bo'lsa, maktab o'quvchilari va o'qituvchilar uchun "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlariga qo'yiladigan so'nggi nuqta bo'ladi, shekilli... Ya'ni:

ALVIDO, SO'NGGI QO'NG'IROQ...

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining yuqoridagi xatining ijrosi qanday bo'lishini, mamlakatimizdagi o'n mingdan ortiqroq maktablarda topshiriq qay darajada bajarilishini ochig'i tasavvur qila olmadim. Qanchaligini bilmadim-u, anchagina maktablarda mazkur topshiriq bajarilmasa kerak. Bajariladigan maktablarda esa bugungi "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri ko'pchilik o'qituvchilar va o'quvchilar uchun armon bo'lib qoladi. Sababini quyida tahlil qilib o'taman.

Vazirlikning xatidagi tavsiyalar to'liq bajariladigan bo'lsa "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirida o'qituvchilarning 80–90 foizi va

2-, 3-, 5-, 6-, 7-, 8-, 10-sinf o'quvchilari, taxminan 60 foiz o'quvchilar ishtirok eta olishmaydi. Tadbir uchun ajratish tavsiya etilgan vaqt reglamentiga amal qilinadigan bo'lsa, tadbirning saviyasi ham haminqadar bo'lib qoladi. Ya'ni kattaroq, o'quvchi soni ko'proq bo'lgan maktablarda, quyi sinflar o'quvchilarning ishtiroki haqida-ku, gapirish ham o'rinsiz bo'lsa kerak. O'quvchilar soni o'rtacha bo'lgan, to'rt sinf ishtirokida o'tadigan bayram senariysining tavsiya etilgan taxminiy ko'rinishini va unga qancha vaqt ketishini tasavvur qilib ko'ramiz:

1. Ochilish so'zi – 2 daqiqa.
2. O'quvchilarning, ya'ni faqatgina tavsiya etilgan to'rt sinf o'quvchilarning chiqishi – 20 daqiqa.
3. Madhiyaning ijro etilishini e'lon qilish va madhiyaning ijro etilishi – 5 daqiqa.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabrigi – 6 daqiqa.
5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tabrigi – 1,5 daqiqa.
6. Viloyat rahbari tabrigi – 4 daqiqa.
7. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi g'oyalarni o'quvchilarga yetkazish – 15–20 daqiqa.
8. Maktab direktori tabrigi – 5 daqiqa.
9. O'quvchilarni taqdirlash – 20–30 daqiqa.
10. Ota-onalarga tabrik va tashakkurnomalar tarqatish – 10–15 daqiqa.
11. Musiqiy chiqishlar, har bir sinf uchun 5 daqiqadan – jami 20 daqiqa.
12. Faxriy mehmonlar, ota-onalarning tabriklari – 10–20 daqiqa.
13. So'nggi qo'ng'iroq chalinishi – 2,5 daqiqa.
14. Tadbirning yakunlanishi – 3 daqiqa.

Tadbirning o'tkazilishi uchun sarflangan barcha vaqtni umumlashtirsak, vaqt eng kam sarflangan taqdirda 117 daqiqa, o'rtacha sarflangan holatda esa 152 daqiqa ketar ekan. Ya'ni vazirlik va boshqarma tomonidan tavsiya etilayotgan senariy asosida, 7 ta sinflar va deyarli ko'pchilik o'qituvchilar ishtirok etmagan holatda umumiy 2-2,5 soat vaqt ketarkan. Vazirlik esa bor-yo'g'i 1 soat vaqt ajratgan. Maktabimiz 250 nafar o'quvchi o'qiydigan va yuqoridagi beriladigan barcha topshiriqlarni bekam-u ko'st bajaradigan maktab. Tadbir tavsiyalar asosida o'tdi. Ammo ikki soatdan oshiqroq davom etdi. Ayrim qisqartirishlar qilingan bo'lsa-da.

Endi bu faqat vaqt masalasi. Bundan boshqa negatv holatlar ham talaygina. Vazirlik tomonidan tavsiya etilayotgan senariyda aksariyat fan o'qituvchilari va o'quvchilarning yarmidan ko'pi bu tadbirda ishtirok eta olishmaydi. Tasavvur qiling, aksariyat maktab direktorlari va direktor o'rinbosarlari dars ham o'tishadi. Agarda, Kundalik.com tizimida login va parol orqali himoya qilinmaganda, O'zbekiston bo'yicha qancha maktab direktorlari va o'rinbosarlarining soat 8-9 oralig'ida qancha darslari borligi haqida ma'lumotni taqdim etgan bo'lardim. Kim uchundir bu fikrlar bachkanalik bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu voqelik, reallik. Ortida Xalqning farzandlari taqdiri turgan voqelik. Maktabda "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri bo'layotgan vaqtda direktor va o'rinbosarlarining darsi 7-, 8-, 10-sinflarda bo'lsin. Xo'sh, ular nima qilishadi? Dars o'tishadimi yoki "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirida ishtirok etadimi? Menimcha,

ikkinchi variant tanlanadi... Xo'sh, o'quvchilar-chi? Ular sinfxonada qolishadi. Nazoratsiz, o'z holicha. Bayram tadbirida ishtirok eta olmaganligi uchun xafa va alamzada o'quvchilarning o'z holicha sinfxonada qolishini tasavvur qiling...

Maktabga sal aloqasi bor kishilarning xayolidan "Eyy, bunaqa bo'lmaydi-ku" degan fikr o'tayotgani rost. Ha, haqiqatan ham bunaqa bo'lmaydi. Rahbarlarning darsi bor sinflar ham tadbirning bir chetidan joy olishadi, albatta. Unda vazirlikning tavsiyasi qayerda qoladi? O'tilmagan darslar Kundalik.com da o'tildi deb qayd etiladi, hatto baholanadi...

Tadbir tugamasdan ikkinchi soat dars boshlanadi. Tadbirda qatnashayotgan sinflar baqir-chaqir, quva-quv bilan 3darsga qaytarishmasa, o'z xohishi bilan tadbirni tashlab darsga qaytmagligi aniq. Huvillagan sinfxonaga kirgan o'qituvchilarning kayfiyatini tasavvur qilavering. Bayramona ruhda, xursandchilik bilan o'tadigan, o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan, o'quv yilida erishilgan natijalar sarhisob qilinib, bitiruvchilarga ezgu tilaklar tilanadigan bir tadbir tugab ketish arafasida turibdi. Xullas, alvido, "So'nggi qo'ng'iroq".

"SO'NGGI QO'NG'IROQ" DAN SO'NG...

Xullas, ta'lim tizimimiz tarixidagi eng g'alati, eng muammoli "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri har bir maktabda o'ziga xos tarzda, an'anaviylik va umumiylikdan voz kechilgan tarzda o'tkazildi. Ammo an'anaviy tarzda, o'quvchilar qalbiga quvonch, jo'shqinlik va motivatsiya ulashib keladigan mazkur tadbirdan bu yil mahzunroq xotiralar qoldi. "Ma'rifat" mushtariylari telegram guruhidagi hamkasblarning fikrlari va ba'zi tanishlarning e'tirozlaridan tadbir xotiralari tushkunlikka yo'g'rilgani sezildi. "Prezident maktabi bitiruvchilari uchun 3 kunlik "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri, oddiy maktablarga esa 40 daqiqalik "tadbircha". Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining xabar berishicha, Respublikadagi 14 ta Prezident maktablari bitiruvchilari uchun "Yangi O'zbekiston yoshlari" nomli tantanali bitiruv kechasi tashkil etilibdi.

Ushbu tadbir naqd uch kun davom etgan bo'lib, bitiruvchilar "Yangi O'zbekiston" universiteti, "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va "Shon-sharaf" davlat muzeyiga sayohat ham qilishgan. Ko'rinishidan ushbu tadbir uchun yaxshigina mablag' ham ajratilgan bo'lsa kerak".

Ko'pchilikda mazkur tadbirning oddiy maktablar uchun alohida, Prezident maktablari uchun alohida tartibda tashkil etilganligi norozilik tug'dirdi. Bunday tabaqalashtirib munosabatda bo'lish, hatto ota-onalarda ham norozilik uyg'otdi. Tanishlarimdan birining ikki farzandi oddiy maktabda, kenja o'g'li esa Prezident maktabida o'qirgan. Ukaning uch kun davom etgan bayram tadbirlarini oila davrasida gapirib berishi, hatto maktabdagi bayram tadbirida ham qatnashmagan akasi va opasiga judayam salbiy ta'sir o'tkazibdi. Tanishim mavjud vaziyatdan juda ta'sirlanibdi:

– Mayli, Prezident maktabida tantanaliroq o'tkazishsin, ammo nima sababdan oddiy maktablarda o'quvchilarning hatto oddiy, qisqa muddatli tadbirda qatnashishini taqiqlashadi. Nima, garangmi bular? Farzandlarimning o'zaro munosabatlari ziddiyatli bo'lib qoldi. Opasi va

akasi ukasini ochiqchasiga, namoyishkorona yomon ko'rib qolishdi... – deydi alam bilan...

Endi mamlakatimizning turli hududlarida yashaydigan va ta'lim tizimining ilg'or vakillari bo'lgan guruhdoshlarimning ayrim fikrlarini keltirib o'taman.

"Prezident maktabi bitiruvchilarning yarmi chetga suradi. Qolgan yarmi jamiyat boshqaruvi qo'lga oladi. Oddiy maktab bitiruvchisi esa yana o'rta yoki pastki bo'g'inga joylashadi. Natijada jamiyatda pastki va yuqori bo'g'inlarda uzilishlar, pirovardida, xalqning dardini tushunmaydiganlar tepaga keladi.

Yuqori notalarda o'qiganlar, hech qachon pastdagi notachalarni tushunmaydi".

"Bizda faqat 9- va 11-sinflar chiqdi tadbirga. Qolganlar dars o'tdi. Lekin o'quvchilar bezovta bo'lib umuman o'tirolmadi. Xullas, na dars, na bayram bo'ldi". "Tadbirda hattoki vazir qatnashgan. Oddiy maktablarda barcha harakatlar chegaralangan, nega? Prezident maktabining o'quvchilari aqlli-yu, oddiy maktab o'quvchilari tartibsizmi? Aytganday, Prezident maktabida o'quvchi va o'qituvchilar sara-lab qabul qilinadi-ku. Tabaqalashtirishning zamonaviy ko'rinishi".

"Bizdayam faqat 9–11-sinflar qatnashdi. Qolgan o'quvchilar maktabga chaqirilmadi. Sizlarda dars o'tildimi, ustoz?".

"Ha, o'quvchilarni sinfga qamab dars o'tdik".

"Nega bir davlat, bir tizimda ikki xil munosabat? Vazirlikning maktablarda 25-may kuni o'tkaziladigan "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiriga 45 daqiqa vaqt ajratilishi buyruqlashtiriladi. Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari liboslar, bolalar harakati, xulqi uchun kafolat xati yozib beradi. Agar o'sha kuni biror holat sodir bo'lsa, urdi Xudo. Vahima. Dovul. Bo'ron. O'sha maktab "trendda". Qizil, qora ranglar shu maktabga beriladi. Maktab ma'murlari ariza yozgani qaysi, tushuntirish xat yozgani qaysi. Yig'lagan, asab qilgan. To'g'risi, shu tadbirdan "qo'rqib" qoldik. Kechasi bilan so'rab chiqamiz. 25-san-amiz tinch o'tsin deb! Bu nima ahvol? Nega Prezident maktablari "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiriga uch kun vaqt ajratiladi? Vaqt chegaralanmaydimi? Reglament bir xil emasmi? Hech kim kafolat xati yozmaydimi? Vazirlik xatida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri 45 daqiqa o'tishi belgilangani uchun bu yil tadbirimiz 45 daqiqada tugadi. 11-sinflarimiz beshta. Bolalar durustroq raqsga ham tusha olishmadi.

Dasturini ko'rsatishga ulgurishmadi. Bo'lmasa bunday "xavfli" tadbir o'tkazilmasligi kerak. To'xtalishi kerak! Men ish boshlaganimdan buyon maktabimizda 25-may kuni faqat bitiruvchilar kelishadi maktabga".

"So'ramang, bir "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirini o'tkazish uchun 1 oy 10 martadan ko'p majlis qilingandir, ortiqcha pul yig'ilmasin, o'quvchilar, o'qituvchilar hech qayerga bormasin, ota-ona kelib tadbirdan keyin bolasini o'zi olib ketsin, bir gap chiqsa kallang bilan javob berasan...".

Xullas, bu fikrlar, o'qituvchilarning qalb og'riqlari, yurak dardlari. Qo'polroq qilib aytganda, oddiy, real voqelik. Balki ustozlardan biri aytganidek, "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirini butunlay to'xtatish kerakdir?

Balki chindan ham "Alvido, so'nggi qo'ng'iroq" deydigan fursat yetgandir...

Mitti polvon

– Inson tanasidagi eng muhim a'zoldan biri YURAK, – deb ustoz navbatdagi to'garak mashg'ulotini boshladi, so'ng o'quvchilarga bir nazar tashlab, so'zida davom etdi:

– Aziz o'quvchilar, bugungi mashg'ulotimizning mavzusi – yurak.

– Iya, ustoz, bizga endi anatomiyadan ham dars o'tmoqchimisiz, – dedi Karimjon mavzuning nomini eshitishi bilan. Anvar esa:

– Qiziq, yurakning matematikaga, undagi hisoblarga qanday aloqasi bor?

– Avval eshitinglar. Bilasizlarmi, matematika barcha fanlarni o'rganish uchun kalit hisoblanadi. Masalan, yurak ayollarda o'rta hisobda 200 gramm, erkaklarda esa o'rta hisobda 260 gramm og'irlikda bo'ladi. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra normal yurak 1 daqiqada 70 marotaba qisqaradi.

Ustoz barcha o'quvchilarga o'ng bilaklaridagi tomirini barmoqlari bilan ushlab ko'rishlarini so'radi. Barcha o'quvchilar o'zlarining tomirlarini ush-

lab, “urayapti, urayapti” deyishdi.

– Yuragimizning 1 soatdagi qisqarishlari soni 4200 marotabani tashkil etadi. Ana endi aytinglar-chi, inson yuragining bir yildagi qisqarishlari soni qancha bo'ladi?

Salima bir zumda “36 milliondan oshib ketar ekan”, dedi.

– Qani, doskaga chiqib qanday hisoblaganingni yozib ber-chi.

– Yuragimiz bir daqiqada o'rta hisobda 70 marotaba, bir soatda 4200 marotaba qisqarishi ma'lum bo'lgani uchun, men avval 4200 ni 24 marotaba orttirib, yurak bir sutkada 100 ming 800 marotaba qisqarishini aniqlab oldim. So'ngra uni 365 ga ko'paytirdim. Inson yuragi to'xtamasdan bir yilda 36 mln 792 marotaba qisqarishini aniqladim.

Salima kelib joyiga o'tirmasidan Tolibjon gap boshladi:

– Anatomiya o'qituvchimiz “tanamizdagi bu mehnatkash a'zoning asosiy bajaradigan ishi – qonni tomirlarimizga yo'naltirishdan iborat” deb

aytgandi. Demak, bu tinim bilmaydigan, “mitti polvon” har qisqarganida qonni tomirlarimiz bo'ylab oyoqlarimizning uchlaridan to bosh miyamizgacha haydab yetkazar ekanda?

– Bir sutkada 7-8 soat uxlab dam olmasak charchab qolamiz. Endi, bir his qilib ko'ring-a, yuragimiz esa tinmasdan 5, 10, 20... 70 yillab harakatlanishi kishini hayratga soladi. Yuragimiz tanamizdagi qonni tomirlarimizga haydaganicha orqaga qaytayotganida dam olar ekan. Ya'ni bu tinim bilmaydigan, “polvon” qonni tomirlarimizga haydab, qayta kengayganidagina dam oldi. Yana bir narsa, inson biror narsadan qattiq xafa bo'lsa yoki xavotirga tushsa yuragining ritmi, urishi tezlashib, salomatlikka jiddiy xavf soladi.

– Inson organizmidagi qon miqdori o'z og'irligining 7 foizini tashkil qiladi. Shunda vazni 50 kg bo'lgan inson tanasida 3,5 kg, vazni 100 kg bo'lgan inson organizmidagina esa 7 kg qon harakatlanadi. Ayol kishida 3 yilda, erkak kishi tanasidagi qon esa 4 yilda yangilanadi. Aytinglar-chi, 60 yoshga to'lgan insonning tomirlarida suzib yurgan qon shu yillar davomida necha marotaba yangilanadi? Qani, Fotima, sen qo'l ko'tardingmi?

– Ayollar tanasidagi qon har 3 yilda yangilanishini hisobga olsak, ularda 20 marotaba, erkak kishining tanasidagi qon esa 4 yilda bir yangilanadigan bo'lsa, 15 marotaba almashadi.

– Aziz o'quvchilar, yuragimizning ishlash prinsipi favvoralarining ishlash jarayoniga o'xshaydi. Unda ham xuddi inson yuragiga o'xshab, ma'lum miqdorda qon o'rmiga suv bo'ladi. Favvora tarkibidagi motor shu suvni elektr toki orqali soatma-soat to'xtamasdan qayta-qayta haydayveradi.

– Ustoz, favvoradagi suv uyimizda foydalanadigan jo'mrakdagi suvga o'xshab kanalizatsiyaga ketmaydimi, – dedi Dilshod hayron bo'lib.

– Yo'q, favvoraning sig'imida kamida 10 tonna suv bo'ladi. Elektr motorlar shu 10 tonna suvni favvoraning bo'limlari tomon tinimsiz haydayveradi. Favvora muhandislari esa ma'lum soatlarda uni harakatga keltirib tur-

gan “yuragi”, ya'ni motorini to'xtatib dam berib turadi. Aks holda u qizib ketib, yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin. Aziz o'quvchilar, endi o'ylab ko'ringlar-chi, yuragimizga ham shunday dam berishimiz mumkinmi? Yo'q aslo. Shuning uchun biz tanamizdagi eng mehnatkash “mittigina polvon”ni doimo ehtiyot qilishimiz lozim. Endi aytinglar-chi, yurakning bir daqiqada 70 marotaba “urishi” ma'lum bo'lsa, kechqurun soat 22-00 da uyquga yotib, ertalab soat 6-00 da uyg'ongan Odiljonning yuragi ertalabgacha necha marotaba qisqaradi?

O'quvchilar yuqoridagi ma'lumotlar asosida avval Odiljonning uyqudalik vaqtini zudlik bilan aniqlab, 8 soatda Odiljonning yuragi 33600 marta urishini aniqladi.

Ustoz darhol o'quvchilarga yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi masalalarni ishlashni tavsiya qildi:


1. Inson tanasidagi qon miqdori o'z og'irligining 7 foizini tashkil etsa, vazni 20 kg, 40 kg va 70 kg bo'lgan kishilar tanasidagi qon miqdorini aniqlang.

2. Uch muchal yoshiga to'lgan ayol va erkakning shu davrgacha tanalaridagi qon necha marotaba yangilanishini toping.

O'quvchilar qiziqish bilan masalalarni ishlashga kirishib ketdilar. Yechimlar topildi.

Mashg'ulot yakunlangach, Shokirjon o'rnidan turib “Bugungi mashg'ulot ham avvalgilari kabi hayotiy va qiziqarli bo'ldi. Uyga borganimda oilamdagilarga ham bu mehnatkash “mitti polvon” haqida aytib beraman. Sizlarni bilmadim-u, bu darsimiz menda katta taassurot qoldirdi. Kelinglar, bizga matematikaning hayotimizda tutgan o'rnini qiziqarli tushuntirib bergan ustozimizni olqishlaymiz”, degan edi barcha o'quvchilar o'rnilaridan turib, qarsak bilan ustozni olqishladi. Shunda ustoz to'garak mashg'ulotidan o'z maqsadiga erishganini anglab, mamnun bo'ldi.

Rahmatulla KARIMOV,
Uchtepa tumanidagi
81-IDUM matematika
fani o'qituvchisi,
O'zbekiston xalq o'qituvchisi



Tajriba

O'quvchingizni maqtashni unutmang!

O'qituvchilik – shubhasiz, eng oliyanob kasblardan biri va ustozning inson hayotidagi o'rni juda katta. Albatta, mana shu o'rin mustahkam bo'lishi uchun ustozdan kasbiga sadoqatli bo'lish, bolalarni chin dildan sevishtalab etiladi. Bola maktabga bilim olish va muvaffaqiyatga erishish uchun keladi. Shunday ekan unga eng yaqin ko'makchi – mehribon ustozidir.

O'qituvchilik faoliyatimni boshlaganimga ko'p bo'ladi. Ammo mana shu davrda o'quvchilarim ko'nglidan ozmi-ko'pmi joy ola bildim. Ularni bilim olish va o'qishga yanayam qiziqtirish, eng asosiysi o'rgangan mavzularini hayotga tatbiq qila olishlari uchun

turli metodlarni qo'llab kelmoqdaman. Bolajonlarga o'zlarini namoyon eta olishlari uchun o'zlari sinfdoshlarini baholashiga imkon berganim, psixologik testlardan foydalanib tanqidiy fikrlashi rivojlanishiga hissa qo'shayotganim yaxshi natijalar beryapti, nazarimda.

Bolalarning har birida o'ziga xos qobiliyat bor deb o'ylayman. Erinchoq yoki o'zini layoqatsiz deb hisoblagan o'quvchilarni “2 baho qo'yaman, o'qimasang aravakash bo'lasan, ota-onangni chaqirtiraman” deya qo'rqitib emas, “Bu mashq, she'r yodlash sen uchun 2 daqiqalik ish, bir deganda bajarib qo'yasan, husnixating, daftar-kitobing o'zingga o'xshagan chiroyli bo'lishi kerak, o'zingni tutishing ota-onangdek yaxshi insonlarning farzandiga mos bo'lsin” iboralari orqali motivatsiya berilsa, ijobiy natijaga erishish mumkinligiga amin

bo'ldim.

Bugungi kunda aksariyat ota-onalar diqqati va vaqtini ko'proq ish va hayot tashvishlariga qaratayotgani o'qituvchi zimmasiga yanayam mas'uliyat yuklamoqda. Shuning uchun ham voyaga yetmaganlar o'rtasida turli ko'ngilsizliklar uchramoqda. Bolalar tarbiyasida oqsashlar kuza-tilmoqda.

Bolalar bilan pozitiv munosabat o'rnatishning eng samarali usuli bu ularga muhim insondek qarash, maqtash, navbatdan tashqari kichik musobaqalar o'tkazib rag'batlantirish – ularning o'qishga

ham, hayotga ham rag'batini oshiradi.

Biz ham qachonlardir o'quvchi edik. Bizni maqtashlarini, nafaqat maktabda, balki oilada ham muvaffaqiyatlarimiz tan olinishini, namunali aka-uka yo opa-singil bo'lishni xohlaganmiz. Bir zum o'zimizni ularning o'rniga qo'yib ko'rsak. Bizga qanday munosabatda bo'lishlarini xohlardik?

O'ylaymanki, o'z kasbini chinakamiga sevadigan ustozga duch kelgan o'quvchi eng omadlidir.

Sumbula SHOMURODOVA,
Sirg'ali tumanidagi
266-maktab o'qituvchisi

Aks sado

Zamonaviy jurnalistikaning uch yo'nalishi

Hayotda barcha jarayonlar bir-biriga uzviy bog'liq. O'zaro mutanosib. Ko'pincha biz ularni bir butunlikda emas, ayro ko'ramiz, xolos. Masalan, tibbiyotda ham shunday. Birgina bosh og'rig'ining sabablari har xil bo'ladi. To'g'ri tashxis qo'ya bilish uchun bir necha mutaxassislarning fikrlari, turli tahlillar zarur. Aksariyat holatlarda tajribali shifokorlar o'z sohasidan tashqari uyg'un yo'nalishlarni ham o'zlashtirgan bo'lishadi. Barcha sohalar kabi jurnalistikada ham xuddi shunday.

Bugungi kungacha jurnalistika filologiya yo'nalishlaridan biri sifatida talqin etilgan. Ilmiy daraja olishda ham unga filologiya fanlari ixtisosligi beriladi. Jurnalistika, publitsistika bevosita jamiyat, auditoriya bilan bog'liq ekan uni politologiya, sotsiologiya, psixologiya fanlaridan yoki bugungi kunga kelib marketologiyadan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki jurnalistikaning taraqqiyoti jamiyatdagi tuzum, tizim, davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'liqdir. O'tgan asr o'rtalarida AQSH mutaxassislari ilgari surgan matbuotning to'rt nazariyasida ham shu g'oyalar asosida uning rivoji, taraqqiyoti belgilab berilgan. Masalan, avtoritar yoki totalitar jurnalistika shunga mos davlat tizimi bo'lgan jamiyatlarda rivojlanadi. OAV davlat propagandasiga uchun xizmat qiladi. Avvallari bunga biz Gitler yoki Sobiq Sovet tizimini misol keltirardik. Hozir uncha uzoq bo'lmagan qo'shni davlatlarda bo'layotgan voqealar ham bunga "tirik" misol bo'la oladi. Aslida uzoq vaqt davomida bitta davlat rahbari hukumatni hech qanday o'zgarishsiz boshqarib, mamlakatdagi yangiliklar ungagina bog'liq bo'lsa, o'zini qanday atashidan qat'i nazar, bu davlat avtoritarligicha qoladi. Bunday jamiyatda matbuot erkin bo'la olmaydi. U davlat propagandasiga uchun xizmat qiladi. Davlat siyosatini ilgari suradi. Nodavlat OAVlar esa, xalqni shuncha-ki asosiy muammolardan chalg'ituvchi kontent taqdim etadi, xolos. Ya'ni ular ko'ngilochar, shov-shuvli material bilan efirni to'ldirishadi. Taniqli AQSHlik olim Noam Xomskiy bu haqda o'zining qator izlanishlarida batafsil bayon etadi. Uning "OAV yordamida qanday manipulyatsiya qilish mumkin?" nomli maqolasida didsizlikka ko'niktirish, asosiy muammolardan chalg'itish kabi usullar batafsil bayon etilgan. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, aksariyat ko'ngilochar vositalar, shoular, tadbirlar ommani aynan shu yo'nalishga undaydi. Omma qanchalik abgor yashasa, shunchalik to'y-u tomoshalar, dabdabali marosim va tadbirlarga o'ch bo'ladi. Shuning uchun avtoritar davlatlarda hukumat tasarrufidagi OAVlar bevosita davlat siyosatini targ'ib qilsa, xususiylarga rekreativ, ya'ni ko'ngilochar funksiyani bajarish topshiriladi. Auditoriya yoki hukumat karnayi taqdim etgan materialdagi ma'lumotlarni biladi yoki maishiy mavzudagi saviyasi past, sifatsiz axborot bilan kundalik muammolardan o'zini chalg'itib yuradi. E'tibor bering, "sovon ko'pigi"ga o'xshatiladigan seriallar vatani Braziliya yoki Hindistonda aksariyat aholi nihoyatda nochor hayot kechira-

TALABALARNI QAYSI NAZARIYA ASOSIDA O'QITYAPMIZ?

“Drammatik naivizm” (gustav) o'qitilgan bo'lsa, o'zbekiston gazetalarida bu haqda maqolalar ko'pincha shunday bo'ladi: “OAVlar davlat siyosatini targ'ib qiladi, xalqni shuncha-ki asosiy muammolardan chalg'ituvchi kontent taqdim etadi, xolos. Ya'ni ular ko'ngilochar, shov-shuvli material bilan efirni to'ldirishadi. Taniqli AQSHlik olim Noam Xomskiy bu haqda o'zining qator izlanishlarida batafsil bayon etadi. Uning "OAV yordamida qanday manipulyatsiya qilish mumkin?" nomli maqolasida didsizlikka ko'niktirish, asosiy muammolardan chalg'itish kabi usullar batafsil bayon etilgan. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, aksariyat ko'ngilochar vositalar, shoular, tadbirlar ommani aynan shu yo'nalishga undaydi. Omma qanchalik abgor yashasa, shunchalik to'y-u tomoshalar, dabdabali marosim va tadbirlarga o'ch bo'ladi. Shuning uchun avtoritar davlatlarda hukumat tasarrufidagi OAVlar bevosita davlat siyosatini targ'ib qilsa, xususiylarga rekreativ, ya'ni ko'ngilochar funksiyani bajarish topshiriladi. Auditoriya yoki hukumat karnayi taqdim etgan materialdagi ma'lumotlarni biladi yoki maishiy mavzudagi saviyasi past, sifatsiz axborot bilan kundalik muammolardan o'zini chalg'itib yuradi. E'tibor bering, "sovon ko'pigi"ga o'xshatiladigan seriallar vatani Braziliya yoki Hindistonda aksariyat aholi nihoyatda nochor hayot kechira-

ASOSIDA O'QITYAPMIZ?

“Drammatik naivizm” (gustav) o'qitilgan bo'lsa, o'zbekiston gazetalarida bu haqda maqolalar ko'pincha shunday bo'ladi: “OAVlar davlat siyosatini targ'ib qiladi, xalqni shuncha-ki asosiy muammolardan chalg'ituvchi kontent taqdim etadi, xolos. Ya'ni ular ko'ngilochar, shov-shuvli material bilan efirni to'ldirishadi. Taniqli AQSHlik olim Noam Xomskiy bu haqda o'zining qator izlanishlarida batafsil bayon etadi. Uning "OAV yordamida qanday manipulyatsiya qilish mumkin?" nomli maqolasida didsizlikka ko'niktirish, asosiy muammolardan chalg'itish kabi usullar batafsil bayon etilgan. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, aksariyat ko'ngilochar vositalar, shoular, tadbirlar ommani aynan shu yo'nalishga undaydi. Omma qanchalik abgor yashasa, shunchalik to'y-u tomoshalar, dabdabali marosim va tadbirlarga o'ch bo'ladi. Shuning uchun avtoritar davlatlarda hukumat tasarrufidagi OAVlar bevosita davlat siyosatini targ'ib qilsa, xususiylarga rekreativ, ya'ni ko'ngilochar funksiyani bajarish topshiriladi. Auditoriya yoki hukumat karnayi taqdim etgan materialdagi ma'lumotlarni biladi yoki maishiy mavzudagi saviyasi past, sifatsiz axborot bilan kundalik muammolardan o'zini chalg'itib yuradi. E'tibor bering, "sovon ko'pigi"ga o'xshatiladigan seriallar vatani Braziliya yoki Hindistonda aksariyat aholi nihoyatda nochor hayot kechira-

TURKISTON MATBUOTI: TARKIBIY OZGIRISHLAR

1917-18 yillarida Rusiya imperatori Nikolay II tomonidan Turkiston matbuoti tarkibiy o'zgarishlar uchun xizmat ko'rsatganlarga mukofot berilgan. Bu mukofot "Turkiston matbuoti" nomli kitobda e'lon qilingan. Kitobda Turkiston matbuoti taraqqiyoti haqida batafsil ma'lumot berilgan. Kitobning muallifi Turkiston matbuoti tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Kitobning muallifi Turkiston matbuoti tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Kitobning muallifi Turkiston matbuoti tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

JURNALISTLAR SIHOUSIGA O'QITILGAN NAZARIYA

Matbuot tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Matbuot tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Matbuot tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Matbuot tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Matbuot tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Halim Saidov: "Talabalarni qaysi nazariya asosida o'qitaymiz?". "Ma'rifat" gazetasi, 2023-yil 21-iyun, №25(9454)

di. Muammolar girdobidan biroz fursatga chalg'ish maqsadida ular... kinoga tushishadi. Tilanchilik bilan kun ko'radigan lo'lilar katta dabdaba bilan to'y qilishlarini hamma bilsa kerak. Ya'ni, jamiyatda bir siqim boylar bo'lib, aksariyat omma qashshoq yashaydigan mamlakatlarda ko'ngilochar kontent turmushdagi asosiy ovunchoq bo'lib qoladi. Shuning uchun avtoritar davlat rahbarlari: "mana, bizda nodavlat OAVlar bor!", deb maqtanish uchun saviyasi past material tayyorlaydigan kanallarga yo'l ochib berishadi. Xususan, blogerlar ham shular jumlasidan. Sobiq Sovet davlatining xalqqa "non va tomosha ber" degan shiori ham shunga asoslangan. E'tibor bering, bu davrda kino san'ati juda rivojlangan. Chiroyli, real hayotdan ancha uzoqda bo'lgan san'at asarlari yaratilgan. Omma ularga ishonib, aldanim, eyforiyada yashagan. Televizioniye sohasidagi "efir" so'zi bilan "eyforiya" so'zining asl ma'nosi birligiga e'tibor bering-a? Avtoritar tizimda, albat, shu tizimda mos jurnalistika paydo bo'ladi va ommalashadi.

Yana bir matbuot ko'rinishi libertarian deb ataladi, u bugungi kundagi tijoriy yo'nalishdagi OAVlar faoliyatini tasniflaydi. U o'n yettinchi asr oxirlarida Angliya va AQSHda paydo bo'lgan. E'tibor bersak, AQSHdagi birona telekanal davlat tasarrufida bo'lmay, aksariyati tijoriy maqsadda ishlaydi. Siyosiy materiallar, bugungi kunda urf bo'lgan politetizm usulida beriladi. Libertarian jurnalistikada OAVlar homiy va reklama beruvchilarga qisman tobe bo'ladi. Maqsadi axborot sotish bo'lgani uchun, mediabiznes shartlariga ko'ra, bu soha rivojlana-

istika etikasi masalasi ham ko'ndalang bo'ladi. Nisbatan so'z erkinligi ta'minlanadigan libertarian jurnalistikada shaxsiy daxlsizlik masalasi bilan so'z erkinligi polemikasi hosil qiladi. Qayerda so'z erkinligi tugab, qayerda shaxsiy daxlsizlik boshlanishining nozik pardasini aniqlash uchun ko'plab sud jarayonlari bo'lib o'tadi. Malika Diananing o'limi bilan bog'liq voqea tafayli jahonda jurnalist etikasi masalasi ayniqsa dolzarb bo'ldi. Yoki mashhur fransuz karikatura jurnali "Sharle Xebdo"ning diniy mavzudagi chiqishlari butun musulmonlar olamini larzaga solganini eslab ko'ring. Puli to'lanadigan musiqani chaladigan, doimo bozor talabi bilan faoliyat ko'rsatadigan libertarian jurnalistikaning ham o'ziga xos kamchiliklari mavjud. Siyosatchilarni ham bemalol mazax qila olishga ko'nikkan bu jurnal tahririyati o'zining qilgan ishini xatolik deb hisoblamagan. Avtoritar jurnalistikaga nisbatan libertarian jurnalistika so'z erkinligi mavjudligi, hukumat rahbarlarini tanqid qilishga imkoniyat yaratilganligi bilan ajralib turadi. Albat, avtoritar himda libertarian jurnalistikaning o'ziga xos yutuq va kamchiliklari mavjuddir.

Yana bir jurnalistika ko'rinishi borki, uni utopik deb atash mumkin. U Ideal modeldir. Ijtimoiy jurnalistika ideal model deb atalishining sabablari ko'p. Chunki jurnalistikaning qaysi yo'nalishda rivojlanishi uni moliyalashtirish tizimi, shakllariga bevosita bog'liq. Ideal modelda u jamiyat taraqqiyoti, auditoriya manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Avtoritar modelda hukumat tarafidan, libertarian shaklda homiy va reklama hisobidan

moliyalashtirilsa, ijtimoiy modelda u oddiy xalq, auditoriya tomonidan mablag' bilan ta'minlanishi kerak. Ijtimoiy mas'uliyatli, sifatli jurnalistika deb ataladigan bu soha ko'rinishining bir qancha unsurlarini qator davlatlar OAVlarida kuzatishimiz mumkin. Masalan, BBC xalqning obunasi orqali moliyalashtirildi, davlat subsidiyasiga ega, hukumat qaramog'ida emas, reklama va homiylikka qaram bo'lgan tijoriy telekanallardan farq qiladi. Nisbatan ijtimoiy mas'uliyatli telekanallar Yaponiya, Germaniyada ham faoliyat ko'rsatadi. NHK telekanalining ko'rsatuvlari ham bizga o'ziga xos sifatli jurnalistikaning namunasi bo'la oladi. Ammo matbuot rivojlanishi va taraqqiyoti uchun oddiy xalq obuna bo'lishi talab etilar ekan, sifatli axborotga odamlarning ehtiyojlari mavjudligi ham uning asosiy shartlaridan biriga aylanadi. Axborotga bo'lgan ehtiyoj odamlarga qachon paydo bo'ladi? Qorni to'q, egni but, ertangi kunidan xavotiri bo'lmagan, ta'lim va salomatliligidan ko'ngli to'q bo'lgan, xotirjam hayot kechiruvchilargina axborot uchun biron haq to'lay oladilar. Taniqli amerikalik psixolog Abraham Maslouning ehtiyojlar piramidasi eslaylik. Birlamchi ehtiyojlari qondirilmagan auditoriya axborot uchun pul to'lamaydi. Gazetaga obuna bo'lmaydi, telekanalning ham tekinini istaydi. Bepul ijtimoiy tarmoqlardagi materiallarga "sho'ng'ib" ketadi. Hamma narsaning arzonligi qidiradi. Kunini zo'rg'a ko'rayotgan, ro'zg'orini qanday eplashni bilmaydiganlar ma'rifat, ma'naviyat, haqiqat topishga intilmaydilar. Demak, ijtimoiy mas'uliyatli jurnalistikaning taraqqiyoti aholining umumiy turmush darajasi, hayotining farovonligi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ideal jurnalistika ko'rinishi deb atashadi. Unda OAVlar auditoriya material sifatli, haqqoniy va mas'uliyatli material tayyorlashga intiladilar.

Shunisi ahamiyatliki, ijtimoiy mas'uliyatli, ideal shakldagi jurnalistika aslida davlat rahbarlari uchun ham kerak. Chunki avtoritar davlatlarda xiyosiy bilimi bo'lmagan omma dushman kelganida uning farqiga bormay, qarshilik ko'rsatishni ham eplay olmaydi. Bunday holda davlat to'ntarishini o'tkazish, chetdan kelgan yovga hukumat tizginini berib qo'yish juda oson. Ijtimoiy jurnalistika auditoriyasining o'z fikri, qarashlari, qadriyatlarini mavjudligi bilan ajralib turadi. Boshqarilishi oson bo'lgan omi xalq avtoritar rejimda bugun bu liderga, ertasiga boshqasiga osongina ergashib ketaveradi. Avtoritar tizim jurnalistikasining eng nozik, ko'z ilg'amas "Axilles tovon"i ham shunda.

Jurnalistikaning uch ko'rinishga bo'linishi nisbiy jarayon bo'lib, ularning hech biri sof holda uchramaydi. Ammo jurnalistika bugungi kunda faqat filologik nuqtayi nazardan emas, balki bundandakengroq fanlar kesimida tadqiq etilishi zarurati davr isbotlamog'ida. Hozir xalqaro jurnalistika ixtisosligiga bo'linishga ham ehtiyoj yo'q. Chunki xalqaro hayotni bilmagan jurnalist sohada faoliyat ko'rsatolmaydi. Barcha jurnalistlar xalqaro miqyosdagi voqea-hodisalarni tahlil qila bilishlari, chet tillarini o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Sohalar kengaymog'ida, o'zaro uyg'unlashmog'ida. Davrning o'zi qaysi yo'nalishdagi jurnalistika rivojlanishi kerakligini ko'rsatmog'ida.


Yulduz ORTIQOVA,
filologiya fanlari nomzodi,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

Amerika Qo'shma Shtatlari. Mahalliy aholi tilida aytadigan bo'lsak — Amerika. Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi hamda dunyodagi eng rivojlangan, o'z so'zini baralla aytadigan yirik, qudratli mamlakatlar qatorida turadi. Sharqdan Atlantika, g'arbdan Tinch okeani, janubi-sharqdan Meksika qo'ltig'i bilan o'ralgan. Ma'muriy jihatdan 50 shtat va bir federal okrugga bo'linadi.




Yangi nashrlar

NAVQIRON AVLODGA TUHFA



Taniqli avar shoiri Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" kitobi ona tilimizda olti marta nashr etilgandi. Yaqinda "Yangi asr avlodi" nashriyoti bu kitobning yettinchi nashrini chiqardi. Bu nashrning oldingilaridan farqi shundaki, o'quvchilarning sevimli kitobi birinchi marta lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida olam yuzini ko'rdi. Endilikda yurtimizning navqiron avlodi ham Rasul og'aning yombi fikrlarini, hikmatlarini, ibratli esdaliklarini, qiziqarli hikoyatlarini, purma'no she'rlarini "Mening Dog'istonim" kitobidan o'zlarining qadrdon alifbosida o'qish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Asar tarjimoni Asror Mo'min, kitobga Feruza Quvonova muharrirlik qilgan, muqovasini Bobur Murodov chizgan.



Asror Mo'min tarjimasidagi atoqli rus yozuvchisi Lev Tolstoyning mashhur "Hojimurod" qissasi ham yosh o'quvchilarga manzur bo'ladi degan umiddamiz. Chunki bu kitobni G'afur G'ulom nomidagi nashriyot bilan ham Washington ancha tosh bosadi. Biroq, Kolaradodagi "Xudolar bog'i", Kaliforniya shtatidagi "Gold gate" ("Oltin ko'pri") bolaligimda telefonimning asosiy fonida rasmi turardi), San-Fransisko, Denver shaharlari ham xotiraga mangu muhrlandi.

Asar kitob holida 1912-yilda chop qilingan kundan jahon adabiyoti muxlislari sevib o'qishmoqda. Kitobga Go'zal Ro'ziyeva muharrirlik qilgan, muqovasini Dilmurod Jalilov ishlagan.

Faxriddin RAHIMOV

HAYRATLARIM YOXUD AQSH SAFARIDAN OLINGAN AYRIM XULOSALAR

Joriy yilning 11–21-iyun kunlari kamina hamda siyosiy jarayonlarni faol yoritib boradigan tajribali jurnalist Dilfuza Esonova Markaziy Osiyolik (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston) bir guruh jurnalistlar uchun tashkil etilgan Xalqaro Meridian markazi, CAMEX (Central Asia Media Exchange) Markaziy Osiyo media almashinuvi dasturi doirasida AQSHda xizmat safarida bo'ldik. Tadbir jarayonlarida O'zbekiston nomidan qatnashish nasib qildi. Media-turning asosiy mavzusi "Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish"ga qaratilgan. Ko'plab qiziqarli treninglarda mahorat oshirish bilan bir qatorda bizga poytaxt, Washington shahri, shuningdek, Kolorado va Kaliforniya shtatlaridagi diqqatga sazovor joylarni sayohat qilish uchun sharoitlar yaratib berildi.

Dasturning maqsadi ta'lim, xotin-qizlarni rag'batlantirish, ijodiy, iqtisodiyot, raqamli marketing, ayollar ishsizligini keskin kamaytirib, ularni tadbirkorlikka yo'naltirish, bu yo'ldagi to'siqlarni mardonavor yengib o'tishga doir takliflarni

muhokama qilish, katta muvaffaqiyatlarga erishgan nozik xilqat vakillarining AQSHdagi bugungi o'rini aniq misollar orqali ko'rsatishni o'z ichiga oldi. Bu haqdagi qarashlarimni OAVda to'liq e'lon qilishga ulgurdim. Bugun esa rasmiylikdan butkul xoli tarzda okean ortidagi yurtda ikki hafta davomida ko'rgan-kechirganlarim, qiziqarli voqealar, xulosalarim imkoni boricha qisqa, shu bilan bir qatorda tushunarli tilda bayon etiladi...

PARVOZ

22 yoshni qarshi olganimga bir oycha bo'lgandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyatidan boshqa O'zbekistonning barcha hududida bo'lganman. Albatta, ham xizmat safarlari, ham sayohatlar avtomobilda amalga oshirilgan. Lekin shu kungacha biror-bir xorijiy davlatga bormagandim. Boshqa hamkasblarim Parij, Berlin, Rim, Istanbulga o'tlanayotganligiga guvoh bo'lgan lahzalarni ularga omad tilab, havas ko'zi bilan qarardim. "Toshkent–Istanbul–Washington" yo'nalishi – bu men

uchun ilk havoga ko'tarilish, parvoz qilish og'ir. Manzil olis, har qanday favqulodda holatlarga (noqulay ob-havo) tayyor bo'lish zarur. Buni o'sha makonga safar qilganlar biladi. Kichik xulosam shuki, Turkiya havo yo'llari tarmog'i bo'yicha qolganlardan ancha ilgari ketibdi. Chunki, AQSHdagi istalgan Xalqaro aeroportga qadam ranjida qilsangiz, unda turklarning maxsus bo'limlari borligiga ko'zingiz tushadi. Biz esa bu borada hozircha maqtana olmaymiz. Hozircha...

EKOLOGIYA

AQSHgacha samolyotda 15 soatga yaqin uchdik. Toshkentdan Istanbulga va turklar diyoridan to'g'ri okean ortiga "Turkish airlines"da uchib keldik. "Nega O'zbekistonnikida emas?" degan savol qiyngani rost. Sabablar bisyor, agar yozilsa, o'zi bitta maqola bo'lishiga ishonchim komil. Turklar xizmat ko'rsatishni juda professional ado etishdi ("AQSH havo yo'llari"nikidan ham ortiq. Bizga Amerika samolyotidan bir necha bor foydalanish, eng so'ngi rusumdagi qop-qora "Ford" avtoulavlarida yurish nasib qildi. Shu tufayli xizmatlar sifatini ikkilanmay solishtirmoqdaman). Ko'p jihatlarini yaxshi ma'noda o'zlashtirishim kerak. Jumladan, xoh u xitoylik bo'lsin, xoh arab styuart(styuardessa)lar dastlab turk tilida faxr bilan gapiradi. Ya'ni, insonning yuzi, tuzilishiga yoki boshqa jihatlariga qarab o'z zabanini o'zgartirmaydi. Bu joyiga qo'limiz ko'ksimizda. "Toshkent–Istanbul" hamda "Istanbul–Washington" yo'nalishlariga qo'yilgan samolyotlar sifat jihatidan yaqqol farq qiladi. AQSHga uchadiganlari deyarli shovqinsiz, hatto qanotlari boshqacha. Xizmatlar ham shunga monand. Menimcha, bu qarorni qisman ma'qul deb bilish mumkin. Chunki Qo'shma shtatlarga

berishadi. Hamma joyda aqlii svetoforlar o'rnatilgan. Piyodalar "o'tish belgisi" yonmagunicha, hatto hech qanday avtomobil bo'lmasa-da, chorrahani kesib o'tmay turaveradi. Haydovchilar, piyodalar, yo'lovchilar bir-biriga juda mos. YTH oqibatida vafot etish ehtimoli nolga teng. O'zingizni juda xavfsiz, mustahkam himoyalangan his qilaysiz. Qisqa qilib aytganda, "Hamma qulay sharoitlar inson uchun!" degani shu bo'ladi. Bizda svetofor "yashil" yonib tursa ham yo'llardan cho'chib o'tamiz. Piyodalar kesib o'tishi uchun mo'ljallangan joylarni-ku, gapirishga til bormaydi. Piyoda o'tishni uzoq kutishi kerak. O'tish huquqi unda bo'lmasa-da. Negaki, haydovchilar uchunmunchaga yo'l bermaydigan odat chiqarishgan (shoshqaloq, tajribasizlari ko'p). Piyodalar huquqlari juda ko'p hollarda "bir tiyin"ga olinmayotgani achinarli. Qancha avtohalokatlar, yosh bolalar o'limi mana shunday befarosatlik ortidan kelib chiqadi. Darvoqe, AQSHda "GAI" (YPX



aslida juda muhim "nuqtalar" bo'lishi mumkinligini angladim. Ba'zi hollarda o'zim bilmasdan ko'p obyektarni shunday o'tkazib yuborgan bo'lishim ham mumkin. Ko'chalarning, buriqish qismlarining, har bir inshootning tarixi odamlar gavjum bo'ladigan joylarga yozib qo'yilgan. Sayyohlar mazza qilib o'qishlari, eksklyuziv ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

TRANSPORT, MADANIYAT...

Tan olishimiz kerakki, O'zbekistonning eng markaziy shahri Toshkent bo'lsa, rivojlanish borasida AQSH shtatlari poytaxtimizdan ancha-ancha oldinga o'tib ketgan. Shaharsozlik, yo'l infrastrukturasini (tekis, ravon "yama"-larsiz) haqida gapirmasa ham bo'ladi. Yirik shaharlaridagi voqealarni ko'rib hayratlandim. Yo'llarda tirbandlik mutlaqo yo'q. Haydovchilar o'ta madaniyatli. Shoshayotganingizni sezishsa, albatta to'xtab sizga yo'l



Abror POYONOV, "Marifat" muxbiri

Mutaxassis minbari

KUTUBXONALARNI RAQAMLASHTIRISH NEGA KERAK?

Bugungi taraqqiyot davrida raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas bo'lagiga aylanib qoldi. Nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini, balki ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, madaniyat, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarni ham axborot texnologiyalari ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy texnologiyalarning sohalarda qo'llanilishi ortiqcha vaqt va sarf-xarajalar oldini olib, turli qog'ozbozlik va korrupsiya holatlariga chek qo'yadi.

Axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi natijasida raqamli kutubxonalar safi kengayib bormoqda. Raqamli kutubxonalar tushunchasi ko'p hollarda onlayn kutubxonalar yoki internet kutubxonasi nomlari bilan ham ataladi. Bunday kutubxonalar resurslari raqamli formatlarda saqlanadi hamda ularga kompyuterlar va mobil qurilmalar orqali kirib foydalanish imkonini mavjud. Ular kitob, jurnal, gazeta, rasm va hokazolarni o'z ichiga oladi. Elektron manbalarni onlayn yoki oflayn o'qish uchun yuklab olish, audio va video formatlaridan ham keng foydalanish mumkin.

Raqamli kutubxonalarining afzalliklari foydalanish qulayligi va resurslarning mavjudligi bilan cheklanmaydi. Jumladan, uning resurslari uzoq vaqtdan beri ilmiy-tadqiqot va izlanishlar olib borishning asosi bo'lib kelgan. Foydalanuvchi ma'lum bir mavzu bo'yicha ilmiy izlanish olib borishi yoki mashhur romanning mavzu ko'lamini o'rganishida bunday kutubxonalar bilimlar olamiga sho'ng'ishga imkon yaratadi. Kitobxon ofis yoki o'z uyida o'tirib kutubxonada mavjud adabiyotlardan foydalanishi mumkin. An'anaviy kutubxonalar jismonan joylashtirilgan resurslar bilan cheklanadi. Mahalliy kutubxonada esa mavjud bo'lmagan manbaga kirish muammosi bor. Biroq raqamli kutubxonalar bilan internetda mavjud resurslarni osongina qidirib topsa bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchi nafaqat mahalliy kutubxonalar, balki butun dunyo manbalariga kira oladi. Onlayn manbalar yordamida xoh u ma'lum bir jurnal maqolasi yoki kitob bobi bo'lsin, foydalanuvchi qidirayotgan ma'lumotni aniq topish uchun qidiruvni moslashtirishi kifoya. Aytaylik, bir xil manbaning muqobil versiyalarini, masalan, kitobning turli nashrlarini yoki maqolaning turli tarjimalarini osongina topadi.

Onlayn kutubxonalar resurslar, shuningdek, kerakli manbani topishni osonlashtiradigan qidiruv funksiyasini ham taklif etadi. Bunday avtomatlashtirilgan tizim mavjud bo'lsa, kutubxonalar xodimlari kataloglashtirish va javonlarni joylashtirish kabi oddiy ishlar kamroq vaqt sarflashlari, mijozlarga maqsadli yordam va yo'l-yo'riq ko'rsatishga ko'proq vaqt ajratishlari mumkin. Bundan tashqari, raqamli kutubxonalar tufayli faqat bir nusxada saqlanib qolgan noyob adabiyotlardan bir vaqtning o'zida minglab kitobxonalar foydalanishi mumkin.

Foydalanuvchi o'ziga kerakli ma'lumotni birgina tizimga kirish orqali istalgan vaqtda topishi mumkin. Raqamli kutubxonalar qo'lida kompyuteri yoki gajeti bo'lgan har bir foydalanuvchi



uchun vaqt va masofa muammosini bartaraf qiladi

Raqamli kutubxonalar haqida gapirganda rad etilishi kerak bo'lgan ba'zi afsonalar mavjud:

1. Ular qimmat, aksincha!

Raqamli kutubxonalar katta afzalliklaridan biri bu katalogni yaratish va yuritishning arzonligidir. An'anaviy kutubxonani saqlash xarajatlari bilan solishtirganda – nafaqat unga ajratilgan maydon uchun, balki yangi nusxalarni sotib olish uchun ham raqamli kutubxonalar cheksiz past qiymatga ega, bu esa yanada kengroq va mustahkam kutubxonalar yaratish imkonini beradi.

2. Raqamli kutubxonalar katalogini yig'ish qiyin.

Har bir muassasa o'z ehtiyojlariga eng mos keladigan katalogni yig'ish avtonomiyasiga ega. Hozir Bidi loyihasi 650 000 dan ortiq nomga ega va har xil ilmiy fanlarni qamrab oluvchi kitoblar, shuningdek, zamonaviy adabiyot va hikoyalar bilan doimiy ravishda o'sib bormoqda.

3. Ular kam qo'llaniladi.

Doimiy mavjudligi bilan kuniga 24 soat, yiliga 365 kun ochiq. Har qanday foydalanuvchi – talaba, xodim, beneficiar va boshqalar – istalgan vaqtda kitobni qarzga yoki uni avtomatik tarzda o'z qurilmasiga yuklab olishi mumkin. Ushbu qulaylik kitobxonalar uchun ajoyib tanlovdir. Natijada elektron ma'lumotlardan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Raqamli kutubxonalarining muntazam foydalanuvchilari an'anaviy kutubxonalar qaranganda deyarli uch baravar yuqori.

4. Undan foydalanish uchun elektron o'quvchi kerak.

Raqamli kitobni o'qish uchun hech qanday maxsus qurilma sotib olish shart emas. Ba'zi qurilmalarda ko'pi bilan dasturni oldindan yuklab olish kerak bo'ladi. Raqamli kitobni kompyuter, smartfon, planshet va hokazolarda o'qish mumkin. Bu veb-sahifaga kirish, avtomatik yuklab olinadigan kitobni tanlash va o'qishni boshlash kabi oddiy.

Dunyo miqosidagi eng nufuzli raqamli kutubxonalar qatoriga quyidagi kutubxonalar kiritsak bo'ladi:

1. World Digital Library – bu raqamli kutubxonada ko'p tilli formatdagi qo'lyozmalar, nodir kitoblar, filmlar, xaritalar va boshqa materiallar jamlangan.

2. Universal Digital Library – bir million kitoblar to'plami.

3. Project Gutenberg – o'qish va yuklab olish uchun 33 000 dan ortiq kitoblardan tashkil topgan.

4. Bartleby – tavsiya uchun kitoblarning ulkan to'plami, jumladan badiiy adabiyot, insho va she'riyat.

5. Ibiblio – elektron kitoblar, jurnallar, ilmiy insholar, dasturiy ta'minot, musiqa va radio materiallar.

6. Google Books – 100 000 dan ortiq tavsiya, yuklab olish va xarid qilish uchun adabiyotlar.

7. Internet Archive – elektron va audio kitoblarni bepul yuklab olish uchun eng katta raqamli kutubxonalar.

8. Open Library – klassik adabiyotlarning 1 000 000 dan ortiq yuklab olish imkoniyati mavjud bo'lgan elektron kutubxonalar.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, kutubxonalar madaniy yodgorliklar, o'ta qimmatli manbalar yig'indisini to'playdi va saqlaydi. Kutubxonaning asosiy boyligi uning fondi va inson kapitali hisoblanadi. Kutubxonalar o'z vazifalarini amalga oshirish bilan jamiyatda muhim ramziy rolni bajaradi, ya'ni kutubxonalar "umumjahon xotirasini" yoki "insoniyat xotirasini" saqlash vazifasi yuklatilgan. Shu sabab ham kutubxonalar faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish zarur. Bundan tashqari, mualliflik huquqi ham muhim masala sanaladi. Mualliflik huquqi va boshqa huquqiy muammolar elektron kutubxonalar e'tiborga olishi kerak bo'lgan ko'plab qo'shimcha muammolardan biri. Raqamli kutubxonalar faoliyati davomida mualliflik huquqiga juda katta ahamiyat berishi talab qilinadi. Chunki istalgan adabiyotning elektron shaklini yaratishdan oldin uning muallifi bilan kelishuv amalga oshirilishi yoki ruxsati olinishi shart.

Har qanday soha doimiy rivojlanishsiz o'z ahamiyatini yo'qotadi. Kutubxonalar faoliyatiga ham yangicha g'oyalari, innovatsion loyihalar, raqamli texnologiyalar hamda bilim va malakali kadrlar jalb qilinmas ekan zamon bilan hamnafas rivojlanish imkonsiz. Raqamli kutubxonalar soni kengayishi esa mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Gulshan SHARIPOVA,
TDYU Axborot-resurs markazi bo'lim mudiri

Taklif

“KITOBXON” SERTIFIKATI BO'LSA...

Kutubxonachilik sohasida

2007-yildan beri faoliyat yuritaman. Ishni maktab kutubxonasidan boshlaganman. Ma'lumki, ko'plab maktab kutubxonalarida kitoblar kamligi yetmaganday, ayrimlarida kutubxonaning o'zi yo'q.

Ish rejamga asosan mahallalarda tashkil qilingan sayyor kutubxonalar davomida Qirg'izobod qishlog'ida To'xtajon ona O'rinova xonadoniga tashrif buyurdik. Bu onaxon kitobni jonidan ortiq yaxshi ko'rarkan. Xonadonida bejirimgina kutubxonasi bor.

– Kitoblar mening xazinam. Dunyoda hamma narsa o'z qiymatini yo'qotadi, lekin kitoblar emas, – deydi 80 yoshli momimiz To'xtajon ona.

Onaxon bilan suhbatlasha turib angladimki, hozirgi zamonda raqamli texnologiyalar qanchalik tez shiddat bilan rivojlanmasin tariximiz kitoblarda aks etadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning to'rtinchi yo'nalishi kitob va kitobxonlik targ'ibotini keng yoyish maqsadida yurtimizning eng chekka hududlaridan biri Qizilqum qishlog'idagi 31-maktabda sayyor kutubxonalar tashkil qildik. O'zimiz bilan olib borgan 100 – 200 ta kitobimiz hech narsa bo'lmay qoldi. Cho'ntak ko'tarsa-yu, har bir oilaga kitob sovg'a qilib chiqsam. Ba'zida kitobsiz ulg'ayayotgan bolalarni o'ylab ich-ichimdan ezilib ketaman.

Hozir mamlakatimizda “Ochiq osmon ostidagi kutubxonalar” shiori ostida turli tadbirlar tashkil qilinayotgani bejiz emas. Ayniqsa, bunday kutubxonalar Qizilqumga o'xshagan chekka hududlarda tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'plab tumanlarda Axborot-kutubxonalar markazlari doimiy faoliyat olib bormoqda. Ammo ayrim kutubxonalar eski maktab, kollejlarda binosida ijara asosida turib ishlayotgani ham hech kimga sir emas. Xalq esa kutubxonalar qayerda joylashganini bilmay sarson bo'ladi. Shunday muammolarning oldini olish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida Axborot-kutubxonalar markazi xodimlari bir joyda tinchgina ishlay olmay sayyor kutubxonalar o'tkazishga chiqib ketishyapti.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda 2023-2024-o'quv yilidan boshlab OTMlarning magistratura va oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda filologiya yo'nalishlari bo'yicha C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etilishi belgilanishi haqidagi xabarga ko'zim tushdi. Endi chet tilini yaxshi bilgan va A1, B1, C1, A2, B2, C2 va hokazo sertifikatlariga ega bo'lgan o'qituvchilarga ma'lum miqdorda ustama haq qo'shib beriladi. Natijada yoshlar orasida til o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi, kitobxonalar ko'payadi. Mana shunday sertifikatlarni kitobxonlik uchun ham joriy qilsak va ma'lum miqdorda rag'batlantirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. “Kitobxon” sertifikatiga ega o'quvchilar uchun OTMga kirishda imtiyoz yaratib berilsa, kelajak avlodni jahonda ilgarilab borayotgan internet tuzoqlaridan qutqargan, ularda biroz bo'lsa-da, kitobga muhabbat uyg'otgan bo'larmidik?!

Maqsuda JUMANIYOZOVA,
Elikqal'a tumani Axborot-kutubxonalar markazi direktori

NAVOIYNING SAMARQANDLIK MUQAVVIYSI

Tarixdan ma'lumki, XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda hukmronlik qilgan, "bir kecha-yu kunduz adabiy bazm quradigan" (Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T. O'qituvchi, 2008.-B.39) Sulton Ahmad mirzoning atrofidagi beklar ham ma'rifatli insonlar bo'lishgan. "Boburnoma"da yozilishicha, Abdulali tarxon sultonlarga xos badiiy bazmlar o'tkazgan. Ulug' zotlar bilan muloqotlar qilishni xush ko'radigan Darvesh Muhammad tarxon esa o'z qarorgohida doim Qur'oni karim ko'chirib o'tirgan. Ahli a'yondan Darveshbek soz chalgan va she'r aytgan (Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.O'qituvchi, 2008.-B.41). Mamlakatda katta mavqega ega bo'lgan, nufuzli amaldorlardan hisoblangan Ahmad Hojibek o'z vaqtini ma'rifiy suhbatlar, adabiy bazmlar va she'riyat kechalari tashkil etishga sarflagan. Faxriy Hiraviy ham bekning butun hayotini ayshda – bazm-u jamshid bilan o'tkazganini (Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. T.Mumtoz so'z, 2014.-B.107.) tasdiqlagan.

Alisher Navoiy asarlarida Ahmad Hojibek (XV asr) nomi katta hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi: "Sulton Malik Koshg'ariyningkim, zamonining bebadallari-erdi, o'g'lidur. Surati xush va siyrati dilkash, axloqi hamida va atvori pisanida yigitdur". (Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T. G'.G'ulom nomidagi BAN, 1966.-156-b). Taniqli davlat arbobi, sarkarda va shoir Ahmad Hojibek Sulton Abusaid Xurosonni egallagach, Hirotda hokim etib tayinlanadi va o'n yil davomida bu shaharni boshqaradi. Sulton Abusaidning Samarqanddagi noibi Jonibek do'ldoy (Ahmad Hojibek do'ldoyning amakisi) vafot etgandan so'ng, Ahmad Hojibek uning o'rniga tayinlanadi. Sulton Abusaid 1469-yilda halok bo'lgandan so'ng Ahmad Hojibek uning to'ng'ich o'g'li Sulton Ahmad mirzoning ulug' beklaridan va lashkarboshilaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatgan va Movarounnahr siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lgan (Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T. Sharq NMAK BT, 2014. 66-b.) "Samarqand mahfuzasida ham muddate hokim erdi. Va bir qarn bo'la bordikim, istiqloq bila amorat va istiqror bila podshohg'a nayobat qiladurkim, hech kishi andin bir nomuloyim nimakim, mujibi e'tiroz bo'la olg'ay, naql qilmaydur. Bovujudu bu bekning sipohiylikda jalodat va bahodurlug'in har kishikim tanir; musallam tutar" (Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. T. G'.G'ulom nomidagi BAN, 1966.156-b).

Ahmad Hojibek o'z davrida ma'rifatparvar va insonparvar hokim sifatida nom qozongan. Ilm, madaniyat va adabiyot rivoji uchun jon kuydirgan, ilm-u adab va hunar ahlini qo'llab-quvvatlagan. Hirotdaligida Abusaid mirzo tarixini yozayotgan Mavlono Abdusamad Badaxshiy va Sultonning xos mulozimi Shayxim Suhayliy vositasida Ahmad Hojibek bilan yaqin aloqa o'rnatgan Navoiy o'sha payti poytaxtda o'ziga nisbatan bo'lgan e'tibordan ko'ngli to'lmay, biror yoqqa bosh olib ketish qaroriga kelganida, aynan uni orqa qilib, Samarqandga yo'l olgan. Ahmad Hojibek Samarqandda Navoiyning ilm olishi va yashashi uchun barcha sharoitni yaratib beradi, "murabbiylik va muqavviylik qilib", moddiy va ma'naviy jihatdan hamisha qo'llab-quvvatlaydi (Alisher Navoiy: Qomusiy lug'at. Birinchi jild. T. Sharq NMAK BT, 2016.-B.86.). Umid Bekmuhammad ham Navoiyni Samarqandga yetaklagan sabablardan biri ilgari Hirotda o'n yil hokimlik qilgan, ayni vaqtda Movarounnahr poytaxtida hukm yuritib kelayotgan Ahmad Hojibek huzuriga borish bo'lgan (Bekmuhammad U. Navoiyning armonlari. T.: Yangi asr avlodi, 2011.-B.14.) deydi. "Amir Ahmad Hojibek Hirotda dorug'asi (boshqaruvchisi) bo'lgan davrda Navoiy bilan uchrashgani haqida tarixiy ma'lumotlar bor. U (o'n-o'n ikki yoshida yetti iqlimda mashhur bo'lgan) yosh Navoiyning iste'dodi to'g'risida xabardor bo'lgan. Navoiyning otasi bilan tanishligi ham haqiqatga yaqin... Navoiy aynan uni qora qilib, Samarqandga kelgan bo'lishi ham istisno emas. Nima bo'lganda ham Ahmad Hojibek Navoiyni benavolikdan qutqarganiga shubha yo'q". (A'zam A. Abrorlar hayrati//Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2021.№7. 7-b.). Adabiyotshunos Burobiya Rajabova "Boburnoma"da murabbiy va muqavviylik talqini" maqolasida yozishicha, "Memuar("Boburnoma")da murabbiy va muqavviy birikmasi Samarqand hokimi Ahmad Hojibekka nisbatan qo'llangan ma'lumotda "Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviy edi", deb fozil hokim o'zining

murabbiy va muqavviylikini faqat Samarqandda Alisher Navoiyga ko'rsatgani aytilgan, ammo asarda muallif uni temuriylar Uyg'onish davrining murabbiy va muqavviy hokimi sifatida ham tanishtirganini yaqqol sezish mumkin." Izzat Sultonning yozishicha, Alisher Navoiy o'zi butun umr orzu qilgan adabiy muhitni birinchi marotaba Samarqandda topdi: Bu yerning hokimi san'at va ilmga, Alisherdek... iste'dodli kishilarga homiygina emas, o'zi ham oqil va shoir edi (Sulton I. Navoiyning qalb daftari. T.:G'.G'ulom nomidagi BAN, 1969.-B.). Darhaqiqat, Ahmad Hojibek o'z davrining mashhur shoirlaridan bo'lgan: "Xushtab' va mardona kishi edi, "Vafoiy" taxallus qilur edi. Sohibi devon edi, she'ri yomon emas edi, bu bayt aningdurkim:

**Mastam, ey muhtasib, imro'z zi man dast bidor,
Ehtisobam bikun, on ro'z ki yobi hushyor.**

(Mazmuni: Qilma bezovta meni, ey muhtasib, mastman bugun, Istagancha qil so'roq topgan kuning hushyor meni.) (Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.Sharq, 2002.-B.45.)

Alisher Navoiy ham uning she'riy iste'dodini yuqori baholab, "Majolis un-nafois"da "tab'i bag'oyat xub voqe' bo'lubtur va nazmga ko'p iltifot qilur" (Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. T. G'.G'ulom nomidagi BAN, 1966. 156-b.) degan. Demak, Navoiy va uning zamon-doshlari qaydlariga asoslanib aytishimiz mumkinki, Vafoiyning ijodidan keltirilgan quyidagi bayt bilan boshlanuvchi g'azal ham adabiy yig'inlarda o'qilgan:

**Girifty joni man az tan ba zulfi purshikan basty,
Kushody parda az ruxsori xeshu
chashmi man basty.**

(Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. T. G'.G'ulom nomidagi BAN, 1966.156-b).

(Mazmuni: Tanimdan jonimni olib ko'p zanjirli soching bilan bog'lading, Yuzingdan pardani ochib (u bilan) ko'zimni bog'lading.)

Ushbu qo'shmisrada mubolag'aning aql ishonadigan va hayotda yuz beradigan turi – tablig' (yuzdagi parda bilan ko'zni bog'lash) hamda aqlga sig'maydigan va hayotda sira uchramaydigan turi – g'ulu' (tandan jonni olib, zanjirli soch bilan bog'lash) san'atlarining qo'llanilganligi Ahmad Hojibekning yuksak shoirona mahoratga ega bo'lganligidan dalolat beradi[Sultonov, 2017:65].

Navoiyning Ahmad Hojibekka mehr va ixlosi shu qadar baland bo'lganki, Hirotda Vafoiy taxallusi bilan she'r yoza boshlagan bir ijodkorni u Sulton Badiuzzamon mirzoning saroy shoiri bo'lgani bois o'z taxallusini Zamoniya o'zgartirishga undagan, Ahmad Hojibek qalamiga mansub ajoyib she'rlarni o'z nomiga o'tkazib yubormasligi haqida ogohlantirgan.

Navoiy "Soqiynoma"da Ahmad Hojibekni zikr etib, Vafoiy taxallusi bilan mashhur bo'lgan bek shoirmi vafoiy ichra safo topgan, ya'ni hayot mazmunini vafoda deb bilgan zot, deydi.

**Chun Vafoyi bila bo'ldi mashhur,
Aylasun umri vafu birla zuhur.
Ko'ngli chun topti vafu ichra safo,
Deki, mundoq dedilar ahli vafu.**

(Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Favoid ul-kibar. Asarlar. O'BT. To'rtinchi tom. T.: Badiiy adabiyot, 1965 422-b.)

Ahmad Hojibekning Samarqanddagi dargohida o'tkazilgan bazm-u jamshid, ziyofatlari adabiy majlis ko'rinishida bo'lib, unda qasidalar, g'azallar, badihalar o'qilib, mushoiralar olib borilgan. Samarqand shoirlaridan Hotamiyning "ulug', mukarram amir va olimlar murabbiysi, fojillar homiysi, Hasson (mashhur arab shoiri) bayonli, zamon Salmon(fors shoiri)i, beniyoz tangri nazari vositasida odamlarga manzur bo'lgan Amir Shujo' ud-davlata vad-din Ahmad Hojibek" madhidagi g'azali va quyidagi qit'asi amaldorning adabiy majlislarida o'qilgan:

**Miri arbobi muruvvat ba saxo,
Didayi ahli maoniy ba suxan.
Bod nav bardayi borash, anjum,
Az sar did dar in dayri kuhan.**

(Mazmuni: Saxovatda muruvvat ahlining amiri, So'zda maoniy ahlining ko'rar ko'zi. Saroyi quli yangilanib, ko'rinsin, Yulduz yangi boshdan bu eski jahonda. (Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. T.: Mumtoz so'z, 2013.-B.32.)

Navoiy Samarqand shahrida bo'lgan paytda do'sti Shayxim Suhayliy bilan birgalikda Ahmad Hojibek adabiy kechalarida ishtirok etgani ehtimoldan xoli emas. Boburning yozishicha, "Mir Alisher Navoiy Hirotdan Samarqandga kelgan paytlari Ahmad Hojibek bilan birga bo'lar edi". (Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.:O'qituvchi, 2008. B.41). Demak, shoirlar sultoni Ahmad Hojibekning "yaqin suhbatdoshi" sifatida bekning she'riyat kechalarida ham qatnashib, o'z g'azallarini o'qigan. Botirxon Valixo'jayev "Alisher Navoiyning Samarqanddagi qadamjolari" nomli maqolasida yozganidek, "Ma'lumki, Navoiyning murabbiysi va homiysi Ahmad Hojibek Samarqand hokimi bo'lishi bilan birga Vafoiy taxallusi bilan she'r bitgan, hatto devon ham tuzgan edi. Shuning natijasida Vafoiy mushoiralarda qatnashardi, shoirlar esa uning she'rlariga tazmin va naziralar yozardilar. Ana shunday shoirlardan biri Alisher Navoiy edi. Uning "Devoni Foni" sig'a kiritilgan quyidagi matla'li g'azali Amir Ahmad Hojibek Vafoiy g'azaliga nazira va tatabbu' tarzida yozilgani alohida ta'kidlangan:

**Dilam burdi ba rux chun parda bo sad
makru fan basti,
Chu duzdon gohe qasdi naqd ro'i xeshtan basti.**

(Alisher Navoiy. Devoni Fony. TAT. Beshinchi jild. T.:G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012.-B.529.)

(Mazmuni: O'g'rilar o'g'rilikka chiqqanda yuzlarini yopganlaridek, sen ham ko'p hiyla-nayrang bila yuzingni parda bilan bekitib, ko'nglimni o'g'irlading.)

Alisher Navoiyning quyidagi g'azali ham Amir Vafoiyning mashhur g'azaliga payravdir:

**Hast ro'yi guli xoli labat boloyi o',
Chun hariri ol k-az anbar buvad tamg'oyi o'.**

(Ko'rsatilgan asar. B.488.)

Yuqoridagi Vafoiy g'azaliga yozilgan naziralar Navoiy tomonidan Ahmad Hojibek huzuridagi adabiy kechalarda o'qilgan bo'lishi ehtimolga yaqin. Navoiy Ahmad Hojibek bilan suhbat qurgani – adabiy kechalarida ishtirok etganini Mirxond ham "Ravzat us-safo"da yozib qoldirgan: "Xurosondan Samarqandga ketib, Xoja Jaloliddin Fazlulloh (Abullaysiy) xonaqosida yashadi. Asosiy vaqtini mutolaa bilan o'tkazdi. Gohida Movarounnahr davlati ishlarining sohibixtiyori Amir Darvesh Muhammad tarxon va Amir Ahmad Hojibek bilan suhbat qurardi. Bu hayot shungacha davom ettiki, Mirzo Sulton Ahmad Husayn mirzoga qarshi Amudan kechib, Xurosonga yurish qilganda, Amir Alisher ham uning o'rdasida edi. Abu Said mirzo o'limi voqeasi va Husayn Boyqaronning Hirotni istilo etganligi haqidagi xabar aniqlangandan so'ng Ahmad Hojibekdan ruxsat olib, Hirotda yuzlandi". (Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. T. Akademnashr, 2011.-B.60).

Muxtasar qilib aytganda, Ahmad Hojibek huzuridagi adabiy majlislar o'z davri shoirlari kamoloti va mumtoz adabiyot taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Taxminan 1467–1469-yillarda Samarqandda bo'lgan Alisher Navoiy ham mazkur she'riyat kechalaridan zavq va ilhom olgan bo'lishi mumkin. Albatta, Ahmad Hojibek adabiy majlislarida Navoiy ishtiroki hamda shoirlar sultoni dunyoqarashi takomilida she'riyat kechalarining ta'siri masalasini tadqiq etish navoiyshunoslik ilmining yangi ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi.

Sherxon QORAYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
TIQXMMI milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti dotsenti

Fan va hayot

TOSHKENT METROPOLITENI ZILZILABARDOSHLILIGIDA KIMLARNING HISSASI BOR?

Toshkent metropoliteni Chilonzor yo'li birinchi bo'lagi ekspluatatsiyaga topshirilganiga 46 yil to'ldi.

1970–1987-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik M.O'rozboev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida aspirant, kichik va katta ilmiy xodim, yangi tashkil qilingan "Metropolitenlar zilzilabardoshligi" laboratoriyasining mudiri lavozimlarida ishladim. Bu laboratoriyani tashkil qilishda marhum akademik Vosil Qobulovning yordami katta bo'ldi.

U Respublika avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (RASU) rahbari sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashiga murojaat qildi, o'z navbatida u yerdan sobiq Ittifoq Vazirlar Kengashiga xat yuborildi. Va nihoyat, Ittifoq Vazirlar Kengashi topshirig'i bilan ko'rsatilgan xatni ko'rib chiqqan sobiq ittifoq fan va texnika davlat qo'mitasi O'zbekiston Fanlar akademiyasiga "Metropoliten konstruksiyalari zilzilabardoshligini nazariy-tajribaviy o'rganish va avtomatlashtirilgan hisoblash usullarini yaratish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi uchun qo'shimcha mablag' ajratdi. 1975-yil iyunida ushbu qaror asosida tashkil qilingan "Metropolitenlar zilzilabardoshligi" laboratoriyasi Toshkent metropoliteni yurish va bekat tonnellari zilzilabardosh konstruksiyalarini yaratish va tatbiq etishda faol qatnashdi. Kafedra bajarilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarining ishlab chiqarishga tatbiqidan hosil bo'lgan katta miqdordagi iqtisodiy samara institut va O'zbekiston Fanlar akademiyasi hisobotlarida qayd etildi. Toshkent metrosini loyihalash ishlarini bajarish uchun Butunittifoq "Metrogiprotrans" loyiha-qidiruv institutining filiali – "Toshmetroloyiha" instituti tashkil qilindi. U yerda ishlash uchun bir guruh moskvalik mutaxassislar, institut direktori M.Xolmuradov, loyiha bosh muhandisi G.Oganesov va boshqalar jalb qilingan edi. Ammo "Metrogiprotrans" instituti mutaxassislari Toshkent shahrining 9 balli yer qimirlash sodir bo'lishi mumkin yuqori seysmik zonasi bo'lgan hududida metropoliten yurish va bekat tonnellari konstruksiyalarini loyihalash tajribasiga ega emas edilar. Bu muammoni hal etish O'zbekiston Fanlar akademiyasi M.O'rozboev nomli mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining o'sha paytdagi direktori, yerosti inshootlari zilzilabardoshligi sohasida yetakchi olim, texnika fanlari nomzodi (keyinchalik akademik) marhum Tursunboy Rashidov rahbarligidagi guruhga topshirilgan edi. Bu guruhda ushbu institutning ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini marhum Ubaydulla Shamsiyev, laboratoriya mudiri, bino va inshootlar mustahkamligi va zilzilabardoshligi bo'yicha taniqli mutaxassis Vladimir Rasskazovskiy va yerusti bino va inshootlari zilzilabardosh konstruksiyalarini tiklash bo'yicha ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lgan A.Eshonxo'jayev ham bor edi. Toshkent metrosi zilzilabardosh konstruksiyalarini loyihalash bo'yicha ko'pgina yechimlar aynan shu guruhning "Toshmetroloyiha" instituti va keyinchalik qurilish ishlarini olib borish uchun tashkil qilingan "Toshmetroqurilish" trest mutaxassislari bilan birgalikda o'tkazilgan yig'ilishlar qarorlari asosida amalga oshirildi. Bu jarayonda faol ishtirok etgan Toshkent metropoliteni boshqarmasi rahbari Sh.Shoaabdurahimov, "Toshmetroqurilish" trest boshqaruvchilari P.Semyonov, G.Shtern, loyiha bosh muhandisi (hozir "Metroloyiha" institutining bosh direktori) Odiljon Zokirov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi.

Shuningdek, o'sha yillari O'zbekiston Fanlar akademiyasi seysmologiya instituti qoshida akademik G'ani Mavlonov rahbarligida tashkil qilingan Toshkent metropolitenini loyihalash va qurishga yordam beruvchi Kengashning samarali faoliyatini

ham qayd etish lozim. Bu ishda Toshkent temir yo'l muhandislari va Toshkent avtomobil yo'llar institutlari, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent shahrining bir qator loyiha va ilmiy-tadqiqot institutlari mutaxassislari faol ishtirok etdilar.

1977-yil 6-noyabrda ishga tushirilgan Toshkent metrosi Chilonzor yo'lining birinchi navbatini foydalanishga qabul qilgan Davlat komissiyasining qarorida qayd etilganidek, Toshkent metropolitenini noqulay grunt sharoitlari va yuqori seysmik zonada loyihalash va qurishda, metro qurilishi tajribasida birinchi bo'lib yirik yig'ma temirbeton elementlardan tiklanadigan yurish va bekat tonnellarining yangi, zilzilabardosh konstruksiyalari yaratildi va tatbiq etildi.

Darhaqiqat, Toshkent shahri faol seysmik hududda joylashgan va tog' jinslarining fizik buzilishi, keskin kunlik va mavsumiy harorat o'zgarishlari, erozion jarayonlar, tog' jinslarining tez-tez namlanib va qurib turishi kabi geologik, gidrogeologik va muhandis-geologik jarayonlar va hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular shahar lyossli gruntrlarining buzilish va qo'shimcha cho'kishlariga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan loyihalangan metro yo'llari bo'yicha gruntrlarning geomorfologik va gidrogeologik sharoitlari, tog' massivining geologik-litologik tuzilishi, gruntrlarning fizik-mexanik xususiyatlari va yerosti suvlarining kimyoviy tarkiblari o'rganib borildi.

Toshkent metropoliteni Chilonzor yo'li bo'yab joylashgan lyossimon gruntrlar yerosti suvlari yuqori sathiga qadar cho'kuvchanlik xususiyatiga ega. Eng sezilarli cho'kuvchanlik yer yuzasidan 6–8 m chuqurlikkacha kuzatiladi. Izlanishlar natijasida aniqlanganiki, bu gruntrlar cho'kuvchanligi, odatda yer yuzasidan chuqurlashgan sari pasayib, ularning zichligi va namlanganlik darajasiga bog'liq. Chilonzor metro yo'li bo'yab joylashgan lyossimon qumloq gruntrlar fizik-mexanik xususiyatlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, yerosti suvlari yuqori sathidan 2,5 – 3,0 m qalinlikdagi qatlam, kapillyar ko'tarilish oqibatida yetarli darajada namlangan bo'lib, metropoliten yerosti inshootlaridan ta'sir qiluvchi hisobiy bosimida amalda cho'kmaydi.

Yaratilgan va joriy etilgan ushbu yangi konstruktiv yechimlarni asosan to'rt guruhga – ochiq va yopiq usulda quriladigan yurish tonnellari, ochiq usulda quriladigan ustunli va bir gumbazli bekat tonnellariga bo'lish mumkin. Ochiq usulda quriladigan yurish tonnellari uchun jihozlar zavodlarda tayyorlanadigan yirik hajmli yig'ma temirbeton elementlardan tiklandi. Bunday yirik hajmli yig'ma temirbeton elementlar nafaqat yurish tonnellari, balki tunneloldi inshootlari va piyodalar o'tish tonnellari konstruksiyalarini tiklash uchun ham keng qo'llanildi.

Bir voqeani faxr bilan yodga olaman. 1970-yillar oxirida kamina Toshkent viloyati ilmiy-texnik jamiyatlar kengashining raisi sifatida ustoz Tursunboy Rashidov raisligidagi Respublika ilmiy-texnik jamiyatlar kengashi prezidiumi a'zosi etib saylangan edi. O'sha yillari Respublika davlat reja qo'mitasi ilmiy boshqarmasining rahbari bo'lib ishlayotgan Islom Karimov ham Respublika ilmiy-texnik jamiyatlar kengashi prezidiumining a'zosi



edi. Prezidium majlislaridan birida men Toshkent metropoliteni yurish va bekat tonnellari zilzilabardosh konstruksiyalarini yaratish va tatbiq etish borasidagi ilmiy-texnik jamiyatlar vazifalari haqida ma'ruza qildim. Ma'ruza Prezidium a'zolari tomonidan ma'qullandi va aynan Islom Karimov taklifiga ko'ra Butunittifoq ilmiy-texnik jamiyatlar Prezidiumida ham bu masala bo'yicha ma'ruza qilish lozimligi qayd etildi. Shunga muvofiq men ushbu masala bo'yicha akademik Aleksandr Ishlinskiy raisligida o'tgan Butunittifoq ilmiy-texnik jamiyatlar kengashi Prezidiumida ma'ruza qildim. Ma'ruza katta qiziqish bilan tinglanib muhokama qilindi, Ittifoq respublikalari ilmiy-texnik jamiyatlar mutaxassislarini Toshkent metropoliteni zilzilabardosh yurish va bekat tonnellari konstruksiyalarini yaratish va tatbiq etish muammosiga jalb qilish zarurligi haqida qaror qabul qilindi va bu qaror Ittifoq respublikalari ilmiy-texnik jamiyatlariga tarqatildi.

Metropoliten zilzilabardosh konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni ushbu konstruksiyalarni hisoblash va ularni dinamik kuchlar ta'sirida sinovdan o'tkazish usullarini yaratish bilan bir vaqtda amalga oshirildi. Nazariy tadqiqotlar olib borishda akademik T.Rashidov tomonidan ishlab chiqilgan yerosti inshootlarining zilzilabardoshligi dinamik nazariyasi asos qilib olindi.

Aylana va to'g'riburchak shaklidagi yurish tonnellari, ustunli va birgumbazli bekat konstruksiyalari zilzilabardoshligini hisoblash usullari, algoritmlari va dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu inshootlar va Toshkent metrosining yo'nalishi parametrlari bo'yicha dinamik(seysmik) kuchlar ta'siriga hisob-kitoblar amalga oshirildi va ushbu konstruksiyalarning mustahkamlik-deformatsiyalangan holatlari aniqlandi. Hisob-kitoblar natijasida olingan eguvchi momentlar va kesuvchi kuchlarning siljish epyuralari ushbu konstruksiyalar elementlarining vaqt va koordinatalardagi kuchlanganlik-deformatsiyalanish holatlarini ko'rsatadi.

Yaratilayotgan metropoliten inshootlarini dinamik hisoblash usullarini keng qo'llash uchun ushbu konstruksiyalarni dinamik yuklar ta'sirida sinov ko'rish va olingan eksperimental natijalarni bajarilgan nazariy hisob-kitoblar natijalari bilan solishtirish zarur edi. Shu maqsadda, Toshkent metrosi Chilonzor yo'lining qurilgan bo'laklarida ulkan eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Konstruksiyaga grunt orqali ta'sir qiladigan dinamik yuk kuchli VP-160 qoziqcho'ktirgichdan foydalanib amalga oshirildi. Tajribalar natijalari nazariy tadqiqotlarni tekshirish uchun ishlatilib, yaratilgan algoritmlar va dastur asosida konstruksiyalar tajriba natijasida olingan akselerogramma ta'siriga hisoblab chiqildi.

Nazariy va tajriba natijasida qayd etilgan akselerogramma ta'sirida olingan siljishlar, eguvchi momentlar va kesuvchi kuchlar epyuralarini taqqoslash ushbu konstruksiyalarning kuchlanganlik-deformatsiyalangan holatlari epyuralarining o'xshashligini, ya'ni nazariy tadqiqotlar ishonchligini ko'rsatadi.

Toshkent metropoliteni Chilonzor yo'lining qurilishida metro tajribasida birinchi bo'lib muhandis-seysmometrik kuzatuvlar tashkil qilindi.

Shuni ta'kidlash lozimki, oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va qarorlariga asosan Toshkent metropoliteni Yunusobod yo'lining ikkinchi bo'lagi, yerusti Sirg'ali va Toshkent yerusti halqa yo'lining bir bo'lagi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Uzunligi 2,9 km bo'lgan Yunusobod metro yo'lining ushbu ikkinchi bo'lagi ikkita bekat va yopiq usulda qurilgan yurish tonnellaridan tashkil topgan. Yopiq usulda qurilgan yurish tonnellarini tiklash qalqon usulida amalga oshirilib, bunda Germaniyadan keltirilgan tonnel qurish mexanizatsiyalangan komplekslari(TPMK)dan foydalanilib, yangi turdagi yig'ma temirbeton blok konstruksiyalari qo'llanildi, bu sohada ilmiy izlanishlar olib borildi.

Toshkent metrosi yo'nalishlarini kengaytirishning yangi yo'nalishi yerusti metrosi uchun yangi konstruktiv yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Jumladan, Toshkent metropoliteni yerusti halqa yo'lining uzunligi 11,42 km bo'lgan birinchi boshlang'ich qismida 7 ta yerusti bekatlari mavjud bo'lib, bu bo'lak Toshkent metrosi O'zbekiston yo'li bilan yerosti piyodalar o'tish yo'lagi orqali bog'langan.

Uzunligi 6,2 km bo'lgan 5 bekatli Sirg'ali yerusti metro yo'li Toshkent metropoliteni Chilonzor yo'li bilan bevosita ulangan. Ushbu yerusti metro yo'li yig'ma-yaxlit temirbeton elementlar – yaxlit ustunlar va yig'ma oraliq qurilmalardan tashkil topgan. Ishga tushirilgan yangi metro yo'nalishlari metroda yo'lovchi tashish o'sishiga hissa qo'shadi, shahar tranzitini osonlashtiradi, yo'lovchi tashish sifatini oshirib, fuqarolar vaqti va pulini tejaydi, ekologik toza transportni rivojlantirish imkonini yaratadi.

Metro yo'llari turli xil chorrahalar, boshqa turdagi transport vositalari bilan kesishuvlardan xoli bo'lgani, metro poyezdlarini boshqarishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari qo'llanilishi tufayli, yo'lovchilar qatnovi xavfsizligi yeryuzi transport tizimiga nisbatan yuqori darajada ta'minlanadi.

Abdurahmon ESHONXO'JAYEV,
Toshkent davlat transport universiteti
professori, texnika fanlari doktori,
professor

Maktabdagi qochoq

Maktab direktori Nosirov, o'z ta'biri bilan aytganda, "razvedkaga" chiqdi. Tez yurib, tez gapirganigami, tabiatidagi shiddat sabablimi, ayrim shumtaka o'quvchilar orqavartdan "pistolet" deb laqab qo'yib olishgan direktor hozir odatiga xilof tarzda sekin qadam tashlar, har sinf eshigida oyoq ilib bir zum ichkariga quloq tutardi.

"Hmmm, tuzuk," – ko'ngli to'lib, o'qituvchilaridan, bir qadar o'zidan ham faxrlanib ko'nglidan kechirdi u.

– Hamma sinfda darslar binoyiday o'tilyapti. Nazorat zo'r-da, nazorat! Ha endi, ming ishchidan bir boshchi a'lo deganlar!

Mana, manovi bo'shinggina ko'ringan, og'zidan bir gap chiqishi qiyin yosh o'qituvchi Ahmadjonov ingliz tilida bulbulday sayrayapti-ya! Barakalla!

Xo'sh, manovi sinfda jonhalak Qo'shshayeva dars o'tyapti ekanlar-da! Salgina shovqin bor-u, ha, ana o'quvchilarini tartibga chaqirdi. Xo'p, yaxshiii....

Direktor shu zaylda ikkinchi qavat taftishini tugatib uchinchi qavatga ko'tarilar ekan, qahr-u g'azabga to'la qattiq-qattiq ovozlarni eshitib qadamini tezlatdi. Qaysidir o'qituvchi intizomsizlik qilgan qaysidir o'quvchining rosa po'stagini qoqyapti. Nima deyotgani aniq eshitilmayapti-yu, lekin o'qituvchi kimnidir yomon so'kyapti. Tinchlikmikan ishqilib?!

Zinaning chiqaverishidagi 8-"A" sinf eshigi qiya ochiq turar, endi aniq eshitila boshlagan alamli, zaharli so'zlar quloqqa, yo'q, naq qalbga o'qday sanchilardi:

– Yurt ishiga yaramagan bola, qay ishga yaraydi?!

"Iye, Eshmuhammedovaning ovozi-ku bu?! Tavbangday ketay, muloyimgina, bilimli, madaniyatli sanalgan bu

o'qituvchi muncha baqirmasa-ya?!" – o'yladi Nosirov.

– Xoin! Qochoq! Nomard! Iflos! It! Tur o'rningdan!

"Voh, niqobli chayon, zaharli ilon ekan-ku bu?! Yo'q, ilon ham po'st tashlaydi bu so'kish, haqoratlarini eshitib! Mana uning haqiqiy basharasi! O'quvchilarga shunday muomala qilar ekan-da! Uyat, isnod, hayf o'qituvchilik!"

Nosirov eshikni shahd bilan ochdi. Eshmuhammedova doska oldida turib olgan, bir qo'lida kitob, bir qo'lini sermab birinchi partada serrayib tik turgan ozg'ingina, novcha o'quvchiga baqirardi:

– Yur!

– Qayoqqa?! – deb gapirib kirdi direktor.

O'quvchilar duvva o'rmidan turib salom berdi. Direktor esa salomga parvo qilmay qalt-qalt titragancha to'xtamay o'qituvchining ustiga to'g'ri bostirib borardi.

– Kinga buncha nafrat, g'azab?

– T-Tursunboyga, – talmovsiradi o'qituvchi.

– Qaysi Tursunboy?!

– I-Ikromjonning o'g'li...

Sinf bir lahza dong qotdi. So'ng o'quvchilar bo'shshib joyiga cho'kishdi. Birgina birinchi partadagi o'quvchi hamon tik turar, katta-katta ko'zlarini qattiq ochib direktordan ko'z uzmasdi. Direktor esa o'qituvchining yonida to'xtab odaticha nafas

olmay hayajonning zo'ridan tovushlarini ikkilantirib bidillay ketdi:

– Uyallmaysizmi-a uyallmaysizmi? Nimma haqqingiz bor-a, nimma haqqingiz bor?! Odam ham shunchalar past ketadimi? Kim aytadi sizni pedagog deb?! Bular norasida bola, yozilmagan oppoq qog'oz-ku axir?!

O'qituvchi kalovlanar, gapirishga og'iz juftlar, Nosirov izn bermay ta'na-dashnomlarni do'lday yog'dirardi.

– Men... men... nima qildim axir?

– Gapirmang! Umuman og'zingizni ochmang! Nima qildim emish! Birov aytisa ishonmasdim, o'z quloqlarim bilan eshitib, o'z ko'zlarim bilan guvoh bo'lib turibman. Ertagayoq majlisda masalangizni muhokama qilaman! Jim bo'ling dedim! – gapirmoqchi bo'lgan o'qituvchi ayolni siltab tashlab hamon shumshayib turgan o'quvchiga yuzlandi:

– Sen xafa bo'lma, bolam. Nega darsdan qochganingni tushungandayman, – o'qituvchiga o'qrayib qarab so'zida davom etdi. – Yur, bolam, nega qochganingni sekin menga tushuntir-chi.

– Men... men... qochmadim, – bat-tar kalovlandi bola.

– Mayli, Tursunboy, yur tashqarida batafsil gaplashamiz.

– Men Tursunboy emas, To'lqin-boyman.

Shundagina boyadan beri hayronlikka cho'mgan sinfda birdan qahqaha portladi. Kulgi tovushidan derazalar zirillab ketgan, bor ovozi xoxolayotgan bolalarning ovozi to'xtay demas, ko'zoynagini bir qo'lga olib, bir qo'li bilan yoshlangan ko'zlarini sidirib kulayotgan Eshmuhammedova ham o'zini to'xtata olmas, birgina Nosirov

merovsirab, rangi oqarib, og'zi qiyshayib turar, hayronlik navbati endi unga o'tgan edi.

Xullas, ma'lum bo'lishicha adabiyot o'qituvchisi shoirtabiat Eshmuhammedova sinfning a'lochi o'quvchisi To'lqinboy Rizayev bilan Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasining darslikda berilgan "Qochoq" parchasidan rollarga bo'linib dialog o'qishayotgan, direktor kelib qolgan ayni paytda to'qayda qochoq o'g'lini uchratib qolgan otaning iztirobli hayqiriqlari yang-rayotgan joyi ekan.

Buni eshitgan direktor ham yayrab kuldi. Yana uning kulgusi qanday kulgu deng? Kamchilik odamlaridagina uchraydigan og'zini ochmay "kulgini qorniga qamab" kulishning antiqa usuli – katta tarvuzday qorin selkillab borib-kelar, yuzi qizarib bo'g'riqib ketgan edi. Uning turish-turmushi ham bolalarning kulgusiga kulgu ular, avval vaziyatdan kulgan bo'lsalar, endi direktorning antiqa kulgusidan kular edilar.

– Eeee, uzr, ming bora uzr, – dedi u nihoyat kula-kula peshonasini ro'molchasi bilan sidirar ekan. – Men bu o'quvchingiz darsdan qochgan-u siz uni haqorat qilyapsiz deb o'ylabman. Endi men fizik bo'lsam, bu asarlaringizni bilmasam.

Lekin qoyil, Eshmuhammedova, ofarin! Xullas, haligi gapim gap. Endigi majlisga, albatta, masalangizni qo'yaman. Lekin o'qituvchilik mahoratingizni e'tirof etib! Mayli, unda davom etaveringlar. Yana bir bora uzr!

Direktor shitob bilan sinfdan chiqib zinalardan pastga tushar ekan, boshini chayqar, qornilari silkinib-silkinib kulib borar ekan doim g'azabini toshiradigan "pistolet" laqabini "xumparlar topib qo'yishgan o'zi" deb ich-ichidan o'zining qiziqqonligini ham koyib borardi.

Salomat ESHIMBETOVA,
Beruniy tumanidagi
47-maktab o'qituvchisi

Poytaxt ko'rkiga ko'rk qo'shilmogda

So'nggi yillarda shahar va qishloqlarimizda bunyodkorlik ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Poytaxtimiz Toshkent ham tarixiy jozibasini saqlagan holda yangilanib, uzoqni o'ylab tuzilgan reja asosida izchil rivojlanib, zamonaviy megapolisga aylanmoqda.

Zamonaviy shaharsozlik namunalari asosida bunyod etilgan ko'plab inshootlar shahar ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. Yangi turarjoylar, ijtimoiy obyektlar, yo'l va ko'priklar shahar ahli va mehmonlariga keng qulaylik yaratmoqda. Bunday ezgu ishlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan zamon talabiga rioya qilgan holda izchillik bilan, tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Poytaxtimizda aholi uchun yanada keng qulayliklar yaratish, transport harakatini tartibga solish

borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda, ayniqsa, poytaxtimizda transport vositalari ko'payib bormoqda. Bu odamlarimizning turmush darajasi yuksalayotgani, yurtimiz yildan yilga farovonlashayotganining isbotidir. Zero, keng ko'lamlil islohotlardan ko'zlangan maqsad ham aholi turmush darajasini oshirish, inson manfaatlarini to'la ta'minlashdir.

Mirobod tumanida ham yirik qurilish tashkilotlari tomonidan katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 964,8 milliard so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 54,3 foizni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 19,7 foizni tashkil etdi.



Mirobod tumanida esa 2023-yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 346,5 milliard so'mni tashkil etib, hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 17,6 foizi yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 149,4 foizga to'g'ri keldi.

Kamol JAMOLOV,
Mirobod tumani statistika bo'limi boshlig'i

Sulton Akbariy tavalludining 100 yilligiga

“MEN FAQAT O‘ZIMGA O‘XSHAYMAN...”



Sulton Akbariy
(1923–1997)

Bu shoirning nomini bugungi yosh adabiyot muxlislari deyarli bilishmaydi. Chunki keyingi 30 yilda uning birorta kitobi nashr etilmadi, gazeta va jurnallarda ijod namunalari e‘lon qilinmadi.

Ammo shoirning xalq ohanglari bilan yo‘g‘rilgan she‘rlari ayniqsa o‘tgan asr 60–90-yillarida mashhur edi. She‘riyat muxlislari uni haqli ravishda Mirtemir, To‘ra Sulaymon kabi nomdor shoirlar bilan bir qatorga qo‘yardi.

Oddiy bir badiiyat muxlisi sifatida shoir ijodiga oid namunalar bormikan, degan o‘y bilan har baloni topsa bo‘ladigan internet sahifalarini titkiladim.

Ammo shoirning qisqa tarjimaiyati holidan boshqa ma‘lumot topolmadim.

Adabiyotimizda baxshiyona uslubda qalam tebratgan shoir Sulton Akbariy 1923-yilning 3-dekabrida Toshkent shahrida tug‘ilgan. Toshkent pedagogika institutida tahsil olgan va 1942–1945-yillari 2-jahon urushida qatnashgan. Janggohdan sog‘-omon qaytgach, uzoq yil turli gazeta va jurnallar tahririyati va nashriyotlarda mas‘ul lavozimlarda faoliyat olib borgan. O‘nga yaqin she‘r va dostonlari kitob holida chop qilingan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni bilan taqdirlangan. Shoir 1997-yil 3-iyunda 74 yoshida vafot etgan.

Sulton Akbariy hassos shoir bo‘lish bilan birga, mohir tarjimon ham bo‘lgan. Bizga ma‘lumki, qardosh qirg‘iz xalqining ulkan “Manas” eposining 1- va 2-kitoblarini atoqli shoir Mirtemir mohirlik bilan o‘zbek tiliga o‘g‘irgan bo‘lsa, eposning 3-kitobini Sulton Akbariy maromiga yetkazib tarjima qilgan.

Bu haqda adabiyotshunos olim va tarjimon Zuhridin Isomiddinov “Sen ham daryo, men ham

daryo” maqolasida shunday yozadi:

“Asarning ikkinchi qismini o‘g‘irishni Mirtemir aynan Sulton Akbariyga tayinlagan. Boisi, kamtarin, nomi bugun uncha ham eslanmaydigan Sulton Akbariy so‘z boyligi, tarjima taomili borasida Mirtemirning izdoshi, ta‘bir joiz bo‘lsa – jo‘rovozi edi. Uning tarjimasi, garchi qisqartishlar haddan tashqari ko‘p bo‘lsa-da, ruhan Mirtemir tarjimasining uzviy davomi bo‘ldi”.

Yana bir gap. Bugun ko‘plab shoir va adiblarning 70, 80, 90 yillik tavallud sanalari sabab saylanma kitoblari nashr etilmoqda. Bu yaxshi an‘ana. Shoir Sulton Akbariy tavalludiga ham shu yilning kech kuzida 100 yil bo‘ladi. Zero, bu kamtarin va zahmatkash shoirning ko‘z-ko‘z qilishga arziydigan she‘r va dostonlari, tarjimalari bor. Quyida shoir qalamiga mansub she‘riy guldastani siz aziz mushtariylarga ilindik.

O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

Qamashi

Sulton Akbariy

VATAN

Vatan, ishonchim mahkam,
Misralarim badastur.
Xayolingda misli sham
Yonib bitmoq havasdur.

Qo‘shiq bilan og‘ayni,
Kam bo‘lmadim dunyoda.
Ko‘ngil degan to‘qayni,
Kezib chiqdim piyoda.

Olam taqsa boychechak,
Dehqon bilan kengashdim.
Xayol – chiroyli ertak,
Atirgulga tenglashdim.

Shakarpalak polizday,
Shira to‘pladim yozda.
Ishqqa, burchga xolisday,
Titrab turdim qog‘ozda.

Asrimga ne daxldor,
O‘tadim sirdosh bo‘lib.
Yosh oshiqday baxtiyor,
Gulgun mayday to‘kilib.

Vatan, ishonchim mahkam,
Misralarim badastur.
Qarib-churiganda ham,
Madhing bitmoq havasdur.

UMR O‘TDI

Umr ham
O‘qilmagan kitob singari,
Qismlarga bo‘linar ekan.
Har birida hayot bozangari,
Ming turlanib ko‘rinar ekan.
Umr o‘tdi,
Umr o‘tdi.
Bokira qismi
Oftobda loladay qamashib.
Bir qismi baxtiyor xayolmi, hismi,
ko‘zlardan shodlik talashib.
Bir qismi alahlab,
O‘t bo‘lib jismi,
janggohlarda savashib,

bir qismining,
bilmam,
nimadir ismi,
hassaga tayanib, bo‘shashib,
cho‘llarda qaqrash bilan
o‘tdi.
Bog‘larda ifor silab,
Tog‘larda qo‘shiq tilab
o‘tdi.
O‘tdi kun artib baxtiyor yoshlarini,
O‘tdi yor, desa qo‘yib
sajdaga boshlarini.
O‘tdi ko‘chada ichib halol
so‘k oshlarini.
O‘tdi xayol bosganda
chimirib qoshlarini.
O‘tdi kesib, silliqlab
Bobotog‘ toshlarini,
Sariq saratonday chiniqib o‘tdi.
Sumbula suviday tiniqib o‘tdi,
Sumanbar dardida siniqib o‘tdi,
Savdolar tushganda uniqib o‘tdi.

Umr o‘tdi.

URUSH HAQIDA

Yo‘q,
Urush uch pardali
“Tor-mor” asari emas.
Sahnalarga zardali
zambaraklari sig‘mas.

Qonli yo‘l qamroviga
ojiz ko‘z, xayol kuchi.
Solsang otning choviga
Ko‘rinmas utta uchi.

Istehkom, qal‘a, qo‘rg‘on,
xandaqlar, dubulg‘alar.
Zamin-u osmon, ummon
olovlarga chulg‘anar.

Shahidlar do‘msalarda,
shamol aylar vovaylo.
Durusroq ko‘msalar-da,
Chanoqdar bo‘lar paydo.

Yo‘q,
urush g‘alabadan

iborat emas faqat.
Tug‘larin egar Vatan,
go‘rlarga yog‘ar rahmat.

ESKI DAFTARDAN

Po‘rsillagan qorlarda
Shoshib boryapman g‘arch-g‘urch.
G‘arch solingan etigim,
Qoqqan nag‘ali birinj.

Jamalagini o‘rib,
Qizlar qoshini qoqar.
Nechun oyli hovliga
Bo‘lmadim bir otboqar.

MEN YIG‘LAB BO‘LDIM

Majnunol tagiga o‘tqazing meni,
Men uchun yig‘lasin,
men yig‘lab bo‘ldim.

Mirtemir

Men yig‘lab bo‘ldim,
Sen yig‘la endi.
Qora jonimni
Qatig‘la endi.

Men yig‘lab bo‘ldim,
Sen yig‘la, gardun.
Yuvilib ketsin,
Jalada gardim.

Men yig‘lab bo‘ldim,
Sen yig‘la, shamol.
Otlar chetidan,
O‘tsin yoyib yol.

Men yig‘lab bo‘ldim,
Sen yig‘la, qumri.
Chaqirtikanday
Shoirning umri.

Men yig‘lab bo‘ldim,
Sen yig‘la, g‘urub.
Botib ketyapman
Chechaklar qurib.

Men yig‘lab bo‘ldim,
Sen yig‘la endi.
Qora jonimni
Qatig‘la endi.

Men faqat o‘zimga o‘xshayman,
Fe‘limga, so‘zimga o‘xshayman.
O‘xshashim qidirmang bo‘shliqdan,
Yozimga, kuzimga o‘xshayman.

Men faqat bolaga o‘xshayman,
Shudringli lolaga o‘xshayman.
O‘xshashim qidirmang qo‘shiqdan,
Shodlangan nolaga o‘xshayman.

Men faqat g‘o‘zaga o‘xshayman,
Oltinrang ko‘zaga o‘xshayman.
O‘xshashim qidirmang oshiqdan,
Qaynagan bo‘zaga o‘xshayman.

Men chiqmagan supaga sen chiq,
Men o‘tmagan to‘r joyga sen o‘t.
Men chiqmagan tepaga sen chiq,
Men tutmagan Humoni sen tut,
Rutbang baland bo‘lsin, avlodim.

Men chiqmagan minbarga sen chiq,
Men aytmagan haq so‘zni sen ayt.
Men chiqmagan guzarga sen chiq,
Men qaytmagan o‘rdudan sen qayt,
Rutbang baland bo‘lsin, avlodim.

Men chiqmagan ko‘k tomga sen chiq,
Men ko‘rmagan rahmonni sen ko‘r.
Men chiqmagan ehromga sen chiq,
Men turmagan yorug‘da sen tur,
Rutbang baland bo‘lsin, avlodim.

Men chiqmagan maydonga sen chiq,
Men yig‘magan uyurni sen yig‘.
Men chiqmagan ayvonga sen chiq,
Men sig‘magan dunyoga sen sig‘,
Rutbang baland bo‘lsin, avlodim.

Men chiqmagan sahnaga sen chiq,
Men bitmagan tarixni sen bit.
Men chiqmagan pardaga sen chiq,
Men yetmagan murodga sen yet,
Rutbang baland bo‘lsin, avlodim!



Obidjanov Dilshod Axmed Xuja o'g'lining 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Kartoshka zararkunandalari bioekologik xususiyatlarining nazariy asoslari va ularga qarshi kurash tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil 21-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Toshkent davlat agrar universiteti.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz

Karimova Nozima Nurmuxamodovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Paradigmal yondashuv asosida professional ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 15-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Isxakova Mavlyuda Raxmanovnaning 13.00.08 — Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Andragogik va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 12-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko'chasi, 64-uy.

Tel/faks: (71) 150-01-27, 150-01-27; e-mail: info@mdomoi.uz

Matyabqov Kamaladin Kuranbayevichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Umumta'lim maktablarida texnologik ta'limni tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish metodikasi (pedagogika fanlari)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 11-iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,

104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Rahmonqulova Dilshoda Murodov qiziyevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili) ixtisosligi bo'yicha "Nemis tilida harbiy terminlar o'rgatishning pedagogik texnologiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 14-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,

104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Raxmonova Gulchexra Salaydinovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "O'quvchilarda nostandart tafakkur tarzini rivojlantirish texnologiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 11-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Azimova Sitara Yusuffonovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini eksplisit rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (texnika oliy ta'lim muassasasi misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 18-iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,

104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Teshayev Azamat A'zamovichning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.22 — Travmatologiya va ortopediya ixtisosliklari bo'yicha "Bilak suyaklarining distal oxiridan sinishlarini jarrohlik yo'li bilan davolash natijalarini bashorat qilishning immunopatogenetik jihatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil 18-iyul kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buxme1990@mail.ru

Toirov Abdumomil Suvonovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Jigar exinokokk ektomiyasidan keyingi qoldiq bo'shliqlarining ishlov berish uslubini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 20-iyul kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xajiyeva Maksuda Sultanovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Musulmon renessansi ijtimoiy-madaniy an'analari pedagogik asoslari (Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy qarashlari asosida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 25-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,

104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Raximova Aziza Davranbekovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Muximquli Firog'iy pand-nasihatlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 25-iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,

104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Madaminov Azimbek Egamberganovichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining ilmiy faoliyatini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 20-iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,

104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Jumaniyozova Nuriya Axmedovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida yuridik diskursning pragmatik xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 25-iyul soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Raxmonov Azamat Ruzvonovichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 14-iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Murodova Durdona Boxodir qizining 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Pak Vanso romanlarida millat muammosining badiiy talqini" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 13-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz

Dustmurodov Ma'ruffon Mansur o'g'lining 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "O'rxun-Yenisey bitiktoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 13-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz

Ismatova Kamola Asqarovnaning 14.00.04 — Otorinologiya ixtisosligi bo'yicha "Timpanosklerozli bemorlarni zamonaviy tashxislash jihatlari va davolashni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 15-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Muximquli ko'chasi, 103-uy.

Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Ro'ziyev Azizjon Savriddinovichning 11.00.06 — Geodeziya. Kartografiya ixtisosligi bo'yicha "Injenerlik-topografik syomkalar ustubini takomillashtirish" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 14-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: ik-geografiya.nuuz@mail.ru



Taklif

SINF RAHBARLIGI UCHUN MAOSH ADOLATLI BELGILANGANMI?

Sinf rahbarlari oylik maoshini sezilarli darajada oshirish yoki bu lavozimni alohida shtat birligi sifatida qayta joriy qilish kerak. Xabaringiz bo'lsa, Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 22-fevraldagi 41-buyrug'ida sinf rahbarlariga qo'yiladigan talablar o'zgartirildi. Mazkur buyruq bilan 2021-yilning fevral oyidan e'tiboran xalq ta'limi tizimida 5-sinfdan 11-sinfga qadar yagona sinf rahbarini tayinlash bo'yicha Nizom joriy etilgan. 5-sinfdan 11-sinfga qadar yagona sinf rahbarini tayinlash tartibi joriy etilganligi yaxshi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Ochiq'ini aytish kerak, sinf rahbarlik – o'qituvchilar orzu qiladigan lavozim emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-sonli farmoniga muvofiq 2020-yil 1-noyabrda boshlab sinf rahbarlarining oylik maoshi biroz oshirildi. Lekin amaldagi nizomda sinf rahbarlari uchun belgilangan talablar oylik maoshga nisbatan ancha yuqori. Chunki sinf rahbari eng kamida 30–40 nafar o'quvchi uchun javobgar bo'ladi.

O'quvchilar davomati uchun ham, elektron kundalik nazorati va o'quv qurollarining soz holatda yuritilishi uchun ham sinf rahbari javob beradi. Xullas, sinf o'quvchilarining barcha xatti-harakatlari uchun u mas'ul. Maktablarda har yili avgust oyida sinf rahbarlik taqsimlanadi. Direktor o'rinbosarlari sinf rahbarligi uchun nomzod qidirishni boshlaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar bu mas'uliyatli vazifani zimmasiga olishni istamaydi. Negaki, sinf olgandan ko'ra ular boshqa maktabdan 10 soat qo'shimcha dars olishni afzal ko'radi. Shu sababli sinf rahbarlik faoliyatini yanada jonlantirish uchun ikkita taklif bor:

▼ **Birinchi taklifim shundan iboratki, sinf rahbarini tayinlashga talablar kuchaytirilgan ekan, demak, ularning oylik maoshini ham mehnatga muvofiq oshirish kerak. Sinf rahbarining ish haqi shunchalik yuqori bo'lishi lozimki, bu lavozimga tayinlanishni o'qituvchilarning o'zi xohlashi kerak. Hozirgi sharoitda esa sinf rahbarligi pedagoglar orzu qiladigan lavozim emas.**

▼ **Ikkinchi taklifim: Sinf rahbari lavozimini alohida shtat birligi sifatida qayta joriy qilish. Bu xuddi oliy ta'lim muassasalarida joriy etilgan tyutorlik lavozimiga o'xshash bo'lishi kerak. Ular maktabda dars bermaydi, o'qituvchilik qilmaydi, faqatgina sinfi bilan shug'ullanadi. Bunda bir sinf rahbariga ko'pi bilan 3 ta sinf birlashtirilishi va uning oylik maoshi mutaxassis o'qituvchining ish haqiga (2 mln 700 ming so'm) tenglashtirilishi kerak. Yaxshi ishlaganlariga ustama ham belgilansa yomon bo'lmasdi.** Shunda sinf rahbarligi lavozimida ishlaydigan xodimlar faqat sinfdagi o'quvchilar bilan ishlab, ularning ta'lim-tarbiyasi, davomati bilan shug'ullanib, o'ziga birlashtirilgan sinf o'quvchilariga ta'lim olish, darsdan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda ko'maklashadi. Bu lavozimga munosib nomzodlar saralab olingunga qadar hozirgi sinf rahbarlar faoliyat yuritaveradi. To'liq shtatda ishlash istagini bildirgan talabgorlar

kelgach, sinf rahbarligi bosqichma-bosqich ularga birlashtiriladi. Yaqin kunlarda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi shundoq ham sinf rahbarlarining lavozim yo'riqnomasini qayta ishlab chiqadi. Ya'ni ular bu taklifni kiritib ko'rish uchun tayyorgina imkoniyat mavjud. Shu jarayon mobaynida vazirlik mana shu ikkala taklifni ham o'ylab ko'rsa yaxshi bo'lardi. To'g'risini tan olaylik, baribir 300–400 ming so'm pulga 30–40 nafar bolaga javobgar bo'lib, ular bilan tinmay ishlash mantiqqa ham to'g'ri kelmaydi-da... Yuqoridagi mas'ullar o'zini sinf rahbari o'miga qo'yib ko'rib: "Shu oylikka o'zim ishlarmidim?" degan savolni o'ziga berib, keyin qaror qabul qilsa, adolatdan bo'lardi. Sinf rahbari 30-40 nafar o'quvchiga javobgar bo'lgani uchun har bir bola boshiga atigi 10-11 ming so'm maosh to'g'ri kelar ekan. Hozirgi vaqtda sinf rahbarlari olayotgan maoshni hisoblab ko'rsak, sinfida 31 nafardan ko'proq o'quvchi o'qisa, sinf rahbarining maoshi 517 ming 440 so'mni tashkil etmoqda. Undan 12% daro-

mad solig'ini chegirib olsak, sinf rahbarining qo'lga 455 ming 300 so'm pul tegar ekan. Ana endi mana shu summani umumiy 40 nafar o'quvchilar soniga bo'lsak, har bir bola boshiga 11 ming 300 so'mdan maosh to'g'ri kelyapti. Nari borsa, har bir bola boshiga ko'pi bilan 15 ming so'm bo'lar. Endi yuqoridagi summa bilan sinf rahbarlari faoliyatini tartibga soluvchi nizomda yozilgan vazifalarni solishtirib chiqing. Bolalarning davomati, sho'xligi va boshqa injiqliklarini ko'tarib, kun bo'yi stressda yurish evaziga ular atigi 11 ming 300 so'm olmoqda. Sizningcha, bu adolatdanmi? Yoki ish hajmi berilayotgan maoshga mosmi? Shu maoshni berib, ulardan o'quvchilar bilan ishlab, ularning ta'lim-tarbiyasi, davomati bilan shug'ullanib, o'ziga birlashtirilgan sinf o'quvchilarning ta'lim olishi, darsdan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishni talab etish sal g'alatiroq emasmi?

Ulug'bek PO'LATOV

Jarayon

TA'TILDA MUTOLAA

Farzandi kelajakda yetuk inson bo'lib voyaga yetishini istagan har bir ota-ona uni, albatta, badiiy kitoblar o'qishga undaydi.

– Farzandlarimiz kitobga qaytishini istasak, albatta, mutolaani o'zimizdan boshlashimiz lozim, – deydi kutubxonamiz qoshida faoliyat olib borayotgan "Davra" adabiy-kitobxonlik to'garagi rahbari, shoir Davron Rajab. – Qiziqtirishning bir jihati o'qiydigan kitobni to'g'ri tanlashdir. Agar bola qo'lga kitob berib, uning murg'ak ruhiyatiga ijobiy ta'sirni ta'minlay olsak, keyin o'zi kutubxonalariga kelib kitob tanlashga qiziq boshlaydi. Mutolaaga havas uyg'otishning yana bir usuli bu, o'qiyotgan kitobdagi sujet manzaralari orqali ta'sirni kuchaytirish hisoblanadi. Ya'ni bugun har bir ota-ona farzandini vaqtini bekorga havoga sovrmasligini va aniq bir kasb yoki soha egasi bo'lishini istab, ularning tasviriy san'at to'garak-



lariga borishini xohlaydi. Tasviriy san'atning badiiy asar mutolaasi bilan juda ko'p mushtarak jihatlari mavjud. Misol tariqasida bunday to'garak mashg'ulotlarida tanlab olingan kitob qahramonlari, ularning sarguzashtlari asosida yozuvchi qog'ozga tushirgan manzaralarni tasvirlashga urinish ijodkorlikka ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Bu bilan farzandlarimiz qobiliyatlarini ikki vosita – mutolaa va surat chizish orqali shakllantirish o'z samarasini beradi.

Darhaqiqat, ta'til kunlari ota-onalar qo'lidan telefon tushmaydigan farzandlarining biror foydali yumush bilan shug'ullanishini istab to'garaklarga jalb etishmoqda. Toshkent viloyati "Turon" axborot-kutubxona markazi qoshida faoliyat olib borayotgan "Davra" adabiy kitobxonlik to'garagi ana shunday to'garaklardan biri. Bu to'garak bir necha yo'nalishlardan tarkib topgan. To'garakning maqsad-nizomi sifatida quyidagilarni keltirishni joiz topdik:

- maktab yoshidagi bolalarni kitobxonlikka jalb qilish;
- ulardan tasviriy san'atga layoqatlarini tanlab borish;
- bolalar ichidan she'riyat va adabiyotning boshqa janrlari bo'yicha iste'dod egalarini aniqlash va tarbiyalab borish.

"Davra" to'garagi a'zolari tasviriy san'at yo'nalishida bu yil ta'tilning ilk kunlari tanlovlarda qatnashib o'ziga xos yutuqlarga erishdilar. 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan Abdulla Qodiriy memorial muzeyi bilan hamkorlikda "Abdulla Qodiriy bolalar nigohida" nomli ko'rgazma o'tkazildi. Ushbu ko'rgazmada 5 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar ishtirok etishdi. Unda "Davra" to'garagi a'zolari Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 46-maktabning 4-sinf o'quvchisi Mukarramxon Nig'matullayeva uchinchi darajali diplom bilan, Muslimabonu Almatova (5-sinf); Ziyoda Qobiljonova, Maftuna Qobiljonova va 115-maktabning 3-sinf o'quvchisi Zaynabxon Abdullayevalar faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Tarixdan ma'lumki, "Turon" kutubxonasi azaldan jadid-ma'rifatparvar ajdodlarimizning ezgu duosini olgan ma'rifat maskani hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining ezgu tilaklari bilan 2019-yil 26-dekabrda yangi binoda faoliyatini davom ettirib kelayotgan kutubxonamiz doim ijodiy izlanishlar bilan kitobxonlarga sifatli xizmat qilish uchun bel bog'lab, kitobxonlikka qiziqtirish borasida yangidan yangi g'oya va takliflarni hayotga tatbiq etib kelmoqda.

Mohira ERMATOVA,
Toshkent viloyati "Turon" axborot-kutubxonasi markazi mutaxassisi

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V- 5524. Tiraj 4683
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonasi – (71) 233-50-55;
kotibiyat – (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi –
(71) 233-42-92 (faks) (71) 233-56-00.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:



Dizayner: Malohat Toshova
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100083 Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonasi manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.